Universitet Kengashining
2025-yil 27-martdagi majlisining 15-son
bayonnomasiga
6-ILOVA

Mazkur nizomga kiritilgan o‘zgartirishlar:
Universitet Kengashining 2026-yil 11-sentabrdagi 3-sonli bayonnomasining 1-ilovasi

Toshkent davlat yuridik universitetining ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash to‘g‘risida NIZOM

Toshkent davlat yuridik universitetining ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda − nizom) O‘zbekiston Respublikasining ta’limga oid qonunchilik hujjatlari va Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta’minlash haqidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan. Nizom Toshkent davlat yuridik universitetida ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdqilash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu nizom Toshkent davlat yuridik universitetining (keyingi o‘rinlarda − universitet) barcha bakalavriat va magistratura ta’lim dasturlarini tasdiqlash jarayonlarini tartibga soladi. Nizom O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro standartlar, xususan, Yevropa oliy ta’lim makonida sifat kafolati bo‘yicha standartlar va yo‘riqnomalari (ESG)ga muvofiq keladi.

Xalqaro qo‘shma ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash bilan bog‘liq jarayonlar alohida tartibga solinadi.

2. Ta’lim dasturlari quyidagilarga ishonch hosil qilish maqsadida ishlab chiqiladi, takomillashtiriladi va sinchikovlik bilan ko‘rib chiqiladi:

taklif etilayotgan darajaning tegishli akademik standartga muvofiq kelishi;

talab etilgan standartga erishish uchun talabaning ta’lim olish jarayoni munosib darajada sifatli bo‘lishi;

universitetning strategik rivojlanish dasturlari va Toshkent davlat yuridik universitetining o‘qitish, ta’lim olish va assessment strategiyasi talablariga rioya etish.

3. Ta’lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

ta’lim dasturini taklif etish;

taklifni ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi tomonidan ko‘rib chiqish;

Ta’lim dasturini ma’qullash bo‘yicha guruh tomonidan atroflicha o‘rganish;

ta’lim dasturini universitet kengashi tomonidan tasdiqlash;

tegishli ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ta’lim dasturini tasdiqlash va ixtisosliklar klassifikatoriga kiritish uchun yuborish.

II bob. Assosiy tushunchalar

4. Mazkur nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Ta’lim dasturi – universitet tomonidan beriladigan darajaga olib boruvchi, muayyan ta’lim natijalariga erishishga qaratilgan, belgilangan tuzilishga ega bo‘lgan, izchillikda o‘qitiladigan modullar jamlanmasi va o‘quv mashg‘ulotlari, shuningdek qonunchilikda ko‘rsatilgan tegishli normativ-uslubiy hujjatlar majmui.

Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi – ta’lim dasturi va uning mazmuni sifatli, dolzarb va davlat ta’lim standartlariga muvofiq kelishini ta’minlash maqsadida ta’lim dasturini ishlab chiqish va takomillashtirishga mas’ul bo‘lgan professor-o‘qituvchilar va xodimlardan iborat guruh.

Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi – ta’lim dasturining milliy va xalqaro akkreditatsiya talablariga muvofiqligini baholovchi hamda uni rasmiy tasdiqlashga tavsiya etuvchi guruh.

Ta’lim dasturi profili – talabalar, professor-o‘qituvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun mo‘ljallangan hamda ta’lim dasturining maqsadi, tuzilishi, kutilgan natijalari, assessment va baholash hamda boshqa muhim jihatlar tavsifi aks etgan rasmiy hujjat.

Modul sillabusi – ta’lim dasturining tarkibiy qismini tashkil etuvchi aniq bir modulga xos bo‘lgan muhim jihatlarni, shu jumladan, modulning maqsadi va moduldan kutilgan natijalar, assessment va baholash, o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish, modul mavzulari va modul kontenti hamda tavsiya etiladigan adabiyotlarga doir muhim ma’lumotlarni qamrab olgan, talabalar, professor-o‘qituvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun modul haqida asosiy ma’lumot beruvchi manba vazifasini bajaruvchi rasmiy hujjat.

Tashqi ekspertlar – ta’lim dasturining sifati, dolzarbligi va akkreditatsiyasi bo‘yicha xolis baho va tavsiyalar beruvchi mustaqil amaliyotchi mutaxassislar va/yoki universitetdan boshqa ta’lim muassasasida faoliyat olib boruvchi professor-o‘qituvchilar.

III bob. Ta’lim dasturini taklif etish

5. Ta’lim dasturi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjati yoki universitetda ichki tartibda bildirilgan tashabbus asosida bildirilishi mumkin. Har

qanday holatda ham ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash jarayoni mazkur nizomda o‘rnatilgan bosqichlar va muddatlarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Universitetda muayyan yangi ta’lim dasturining o‘qitilishi maqsadga muvofiq deb hisoblovchi professor-o‘qituvchi yoki xodim mazkur nizomning 1-ilovasida keltirilgan ta’lim dasturi taklifi bo‘yicha shaklni to‘ldirishi shart.

Ta’lim dasturi taklifi shakli keyinchalik Universitet kengashi tomonidan ta’lim dasturini ishlab chiqishga ruxsat berish uchun baholanishi lozim bo‘lgan muhim ma’lumotlarning shakllanishiga asos bo‘ladi. Bu ma’lumotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

ta’lim dasturining turi va davomiyligi;

ta’lim dasturining umumiy tavsifi;

ta’lim dasturini ishlab chiqish asoslari, shu jumladan mehnat bozori ehtiyojlari va talablari;

talabalarni qo‘llab-quvvatlash;

ta’lim dasturiga talabalarni qabul qilish;

professor-o‘qituvchilar va xodimlarga qo‘yilgan talablar;

moddiy-texnik baza (resusrlar);

akkreditatsiya.

6. Bakalavr ta’lim dasturi taklifi ta’lim dasturi biriktirilishi kutilayotgan fakultetning dekani va tegishli akademik departament boshlig‘ining roziligi bilan ishlab chiqiladi va ta’lim dasturi taklifi shakli dekan tomonidan tasdiqlanadi.

Magistratura ta’lim dasturi taklifi Magistratura bo‘limi boshlig‘i va Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktorining roziligi bilan ishlab chiqiladi.

7. Ta’lim dasturi taklifi shakli tegishli dekan tomonidan O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi)ga keyinchalik universitet kengashi muhokamasiga kiritish uchun taqdim etiladi.

Universitet kengashi ta’lim dasturi taklifi shaklini ta’lim dasturi universitetning strategik qarashlari, universitet daromadiga ta’siri va universitetning boshqa ta’lim dasturlariga mos kelishiga ishonch hosil qilish uchun ko‘rib chiqadi. Universitet kengashi taklifni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi hamda dasturni ishlab chiqish jarayonining ikkinchi bosqichiga o‘tkazish masalasini ko‘rib chiqadi.

IV bob. Taklifni ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi tomonidan ko‘rib chiqish

8. Agar Universitet kengashi tomondan ta’lim dasturi taklifi ma’qullansa, O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) taqdimiga asosan universitet rektori

buyrug‘i bilan ta’lim dasturini to‘liq yaratish va ta’lim dasturi taklifining tugallangan variantini ishlab chiqish uchun Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi tuziladi.

Mumkin bo‘lgan hollarda ta’lim dasturini ishlab chiqish jarayoni ta‘lim dasturi o‘qitilishi boshlanishi mo‘ljallangan sanadan 12 oy oldin boshlanadi. Ta’lim dasturi iyul va avgust oylarida ishlab chiqilishi mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat hujjatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim dasturini joriy etish muddati ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno.

Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhiga tegishli ta’lim dasturi biriktriladigan fakultetdan professor-o‘qituvchi rahbar etib tayinlanadi. Guruh tarkibiga, shuningdek kamida ikki nafar tegishli bilim, tajriba va soha bo‘yicha mutaxassislikka ega bo‘lgan kamida 2 nafar qo‘shimcha professor-o‘qituvchi kiritiladi. Guruhga qo‘shimcha xodimlar kiritilishi mumkin.

9. Universitet modullarga ta’lim dasturining asosiy qurilmasi sifatida qaraydi. Ta’lim dasturi profillari yagona hujjatda ta’lim dasturiga doir muhim ma’lumotlarni umumlashtirsa, modul sillabusi aniq bir modulga daxldor ma’lumotlarni qamrab oladi. Mazkur ikki hujjat ta’lim dasturiga daxldor ma’lumotlarni olish mumkin bo‘lgan birlamchi hujjat ekanini hisobga olib ularni to‘g‘ri shakllantirish va yangilab turilishiga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Universitet namunaviy ta’lim dasturining profili (2-ilova) va namunaviy modul sillabuslariga (3 va 4-ilovalar) hamda namunaviy modul sillabusidan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomaga ega (5-ilova).

10. Modul sillabusida berilgan moduldan kutilgan natijalar (MKN) ta’lim dasturi profilida berilgan ta’lim dasturidan kutilgan natijalar (TDKN)ga umumiy hissa qo‘shishi (bog‘lanishi) va modul o‘qitiladigan ta’lim dasturining tegishli bosqichiga mos bo‘lishi kerak.

Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi ushbu talabning bajarilishini ta’lim dasturini ishlab chiqish jarayonida ta’minlaydi.

11. Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi ta’lim dasturini ishlab chiqishda quyidagi tashqi mezonlarga tayanadi yoki foydalanadi:

davlat ta’lim standartlari;

milliy malaka ramkasi;

Yevropa malaka ramkasi;

Yevropa oliy ta’lim makonida sifat kafolati bo‘yicha standartlar va yo‘riqnomalar (ESG);

Buyuk Britaniyaning Oliy ta’limda sifat kafolati agentligi (QAA)ning mutaxassislik sohalari bo‘yicha minimal talabalari (QAA UK Subject Benchmark Statements).

12. Tashqi mezonlarga qo‘shimcha tarzda universitet ta’lim dasturini ishlab chiqish, takomillashtirish va ma’qullash jarayonida amaliyotchilar tajribasidan

foydalanadi. Universitet mazkur amaliyot ta’lim dasturining mazmunini boyitishiga, ta’lim jarayonining xalqaro va mehnat bozori amaliyotiga muvofiq kelishi hamda xalqaro darajada raqobatbardosh bo‘lishiga hissa qo‘shishiga ishonadi. Shunga asosan, ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi ta’lim dasturini ishlab chiqish jarayoniga amaliyotchi mutaxassis va boshqa oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini jalb etadi.

13. Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi talabalar, shuningdek imkoniyat bo‘lsa, ta’lim dasturi bo‘yicha potensial talabalarni ularning fikr-mulohazasidan foydalanish maqsadida ta’lim dasturini ishlab chiqish jarayoniga jalb etadi.

14. Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi modul sillabuslarida keltirilgan adabiyotlar universitetning axborot resurs markazida mavjud bo‘lishi kerakligi singari milliy akkreditatsiya talabi bajarilishiga ishonch hosil qilish uchun Axborot resurs markazi bilan maslahatlashishi shart.

15. Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi ta’lim dasturini ma’qullash bosqichi uchun taqdim etganda unga ish beruvchilar, boshqa oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari va talabalar tomonidan hissa qo‘shilganini asoslab beruvchi dalillarni ham taqdim etishi shart.

16. Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi tomonidan quyidagi hujjatlar topshiriladi.

ta’lim dasturi taklifi bo‘yicha shakl;

ta’lim dasturining malaka talablari;

ta’lim dasturining o‘quv rejasi;

ta’lim dasturi profili;

modul sillabuslari;

manfaatdor tomonlardan ish beruvchi va talabalar bilan maslahatlashuv o‘tkazilgani haqida dalil.

V bob. Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi tomonidan atroflicha o‘rganish

17. Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi ta’lim dasturida doir hujjatlar keyinchalik Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi tomonidan ko‘rib chiqilishi uchun O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi)ga taqdim etadi.

18. Taklif etilayotgan ta’lim dasturi atroflicha o‘rganib chiqilishi uchun Universitet kengashi tomonidan O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi)ning taklifi asosida Ta’lim dasturini ma’qullash bo‘yicha guruh tuziladi.

Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi quyidagi tarkibda tuziladi:

ta’lim dasturi biriktirilmaydigan fakultet dekani (guruh rahbari);

Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi xodimi (kotib);

ta’lim dasturi biriktirilmaydigan fakultetidan bir nafar professor-o‘qituvchi;

tegishli soha bo‘yicha universitetdan tashqarida faoliyat olib boruvchi professor-o‘qituvchi;

kamida bir nafar ish beruvchi;

bir nafar talaba.

19. Ta’lim dasturini ma’qullash guruh taqdim qilingan barcha hujjatlarni, shuningdek ta’lim dasturini ishlab chiqish jarayonida tashqi eskpertlardan olingan fikr-mulohazalarni tahlil etadi.

20. Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi a’zolarini, tashqi manfaatdor tomonlar hamda tegishli bo‘lgan hollarda va/yoki zarurat bo‘lganda potensial talabalar va/yoki mazmunan yaqin bo‘lgan ta’lim dasturi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarni ularning ta’lim dasturi bo‘yicha fikr-mulohazalarini olish uchun suhbatdan o‘tkazadi.

Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi tomonidan bevosita ta’lim dasturi bilan bog‘liq quyidagilar amalga oshiriladi.

ta’lim dasturi nomi va akademik darajasiga muvofiq kelishini ta’minlash maqsadida uning tuzilishi va kutilgan natijalarga erishish imkoniyatini hisobga olish;

o‘qitish, ta’lim olish va assessment usullari kutilayotgan natijalarga erishilishiga olib kelishi, barcha talabalarga o‘zlashtirishni namoyon etishga imkoniyat bergan holda uning inklyuzivligiga ishonch hosil qilish;

xalqarolashuv, bandlik, barqarorlik tamoyillari va universitet strategik ustuvorliklari kabi jihatlar ta’lim dasturiga singdirilganini ta’lim dasturiga qanday singdirilganini ko‘rib chiqish;

universitetning ichki hujjatlariga, xususan, ta’lim dasturini ma’qullash tartibiga rioya qilinayotganiga ishonch hosil qilish;

ta’lim dasturining aniqlik va ishonchlilik darajasi uni nashr etish (e’lon qilish)ga mosligi va uning maqsad va natijalariga muvofiq kelishiga ishonch hosil qilish.

21. Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi tahlil asosida quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qisqa hisobot tayyorlaydi:

shartlar (ta’lim dasturi universitet kengashi tomonidan tasdiqlash uchun ko‘rib chiqilishidan oldin bajarilishi shart bo‘lgan muhim va asosiy harakatlar);

tavsiyalar (ta’lim dasturini tasdiqlashga to‘sqinlik qilmasa-da, Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi nuqtai nazaridan dasturni takomillashtirishga xizmat qiladigan harakatlar);

ilg‘or tajriba (Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi tomonidan ta’lim dasturinining universitet kontekstida ilg‘or tajriba sifatida baholangan jihatlari);

universitet kengashiga ta’lim dasturini tasdiqlash yuzasidan tavsiya.

22. Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) orqali Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi va tegishli fakultet dekaniga hisobot nusxasini taqdim etadi.

23. Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhi xulosadagi shartlar va tavsiyalarni ko‘rib chiqadi va yozma javob tayyorlaydi. Shunigdek, shartlarda keltirilgan masalarni 20 kun ichida hal qiladi va tayyorlangan yozma javobni O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi)ga taqdim etadi.

Agar taqdim etilgan hujjatlarda bartaraf etish zarur bo‘lgan jiddiy kamchiliklar aniqlangan taqdirda, Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi hujjatlarni qayta ishlash uchun Ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhiga qayta ishlash va qayta taqdim etish uchun qaytaradi.

24. O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) ta’lim dasturini tasdiqlash masalasini Universitet kengashiga navbatdagi majlisida ko‘rib chiqish uchun kiritadi. Bunda kengash a’zolariga tanishib chiqish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

to‘ldirilgan ta’lim dasturi taklifi shakli;

Ta’lim dasturini ma’qullash guruhining hisoboti;

Ta’lim dasturini ma’qullash guruhining hisobotida ko‘rsatilgan shartlar va tavsiyalar yuzasidan ta’lim dasturini ishlab chiqish guruhining javobi.

VI bob. Ta’lim dasturini tasdiqlash va o‘qitish

25. Universitet kengashi taqdim etilgan hujjatlar asosida ta’lim dasturini tasdiqlash masalasini muhokama qiladi va tegishli qaror qabul qiladi.

26. Ta’lim dasturini tasdiqlash borasida universitet kengashi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda tegishli hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tasdiqlash va ixtisosliklar klassifikatoriga kiritish uchun O‘quv-usluby boshqarma (Registrator ofisi) tomonidan 15 kun ichida yuboriladi.

27. Ta’lim dasturining O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ixtisosliklar klassifikatoriga kiritilishi ta’lim dasturining o‘qitilishi uchun asos bo‘ladi.

28. Ta’lim dasturi ixtisosliklar klassifikatoriga kiritilgach O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) tegishli barcha tarkibiy bo‘linmalarga ta’lim dasturini o‘qitilishini yo‘lga qo‘yishga tayyorgarlik ishlarini boshlash bo‘yicha eslatma beradi.

VI bob. Yakunlovchi qoidalar

29. Mazkur nizom va uni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar borasida O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi)ga murojaat qilish mumkin.

30. Nizom belgilangan tartibda qayta ko‘rib chiqiladi va zaruratga ko‘ra tegishli o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritiladi.

Toshkent davlat yuridik universitetida ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash to‘g‘risidagi nizomga
1-ILOVA

TA’LIM DASTURI TAKLIFI SHAKLI

Ta’lim dasturi taklifi shakli talabalar uchun ta’lim dasturi nimani taklif qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan ma’lumotlarni jamlashga mo‘ljallangan. Ushbu shakl Universitet kengashi tomonidan tasdiqlanishi lozim. Shundan so‘ng ta’lim dasturini ishlab chiqish bosqichiga ruxsat beriladi.

Ushbu shakl bakalavriat va magistraturaning barcha ta’lim dasturlari uchun foydalaniladi. Standartlashtirilgan shakldan foydalanish ta’lim dasturlari bo‘yicha izchillikni ta’minlashga xizmat qiladi hamda yuqori sifat va talabalar uchun mukammal ta’lim tajribasini ta’minlashga yordam beradi.

Agar shaklni to‘ldirishda yordam kerak bo‘lsa, O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi)ga murojaat qiling.

Ta’lim dasturi taklifi shakli O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi)ga topshirilmasidan avval ta’lim dasturi biriktirilishi kutilayotagn fakultetning dekani tomonidan tasdqilanishi va imzolanishi shart.

Fakultet	
Sho‘ba/tarkibiy bo‘linma	
Ta’lim dasturini taklif etuvchi shaxs F.I.Sh.	
Ta’lim dasturini ishlab chiquvchi guruh	
Taklif qilingan dastur nomi	
Jami ECTS	
Ta’lim dasturi joriy etiladigan o‘quv yili	
Ta’lim dasturining davomiyligi	
Ta’lim dasturining milliy malaka ramkasidagi darajasi	
Ta’lim shakli	
Ta’lim dasturini akkreditatsiyadan o‘tkazish rejalashtirilganmi? Agar shunday bo‘lsa, qaysi tashkilot tomonidan?	

Shakl taqdim etilgan sana	
Universitet kengashi tomonidan ko‘rib chiqilgan sana	

Universitet kengashi tomonidan taklif shakli tasdiqlanganidan so‘ng, mazkur shakl va boshqa tegishli hujjatlar loyihalarini (ta’lim dasturi profili, o‘quv rejasi, malaka talablari va modul sillabuslari) O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi)ga keyinchalik Ta’lim dasturini ma’qullash guruhi tomonidan ko‘rib chiqish uchun topshiring.

1-bo‘lim. Ta’lim dasturi haqida ma’lumot

Ta’lim dasturini ishlab chiqish asoslari

Ushbu ta’lim dasturi universitet strategiyasi va tegishli fakultetning vazifalariga qay darajada muvofiq kelishini qisqacha tushuntirib bering.

(So‘zlar cheklovi: 500 ta)

Talabalarning ehtiyoji

Imkoni bo‘lsa, mazkur ta’lim dasturiga talabalarning qiziqishini isbotlovchi dalil keltiring.

(Masalan, hujjatlashtirilgan so‘rovlar, fokus guruhlar bilan suhbat)

Mehnat bozori ehtiyojlari

O‘zbekiston va xalqaro mehnat bozorida ish beruvchilarning taklif etilayotgan ta’lim dasturi bitiruvchilariga bo‘lgan ehtiyojlarini ko‘rsatib beruvchi dalillarni keltiring.

(Imkoni bo‘lsa, statistik ma’lumot keltiring)

Amaldagi ta’lim dasturlari bilan aloqa

Agar ta’lim dasturi amaldagi ta’lim dasturinig o‘rniga o‘qitiladigan bo‘lsa yoki amaldagi talabalar yangi ta’lim dasturiga o‘tkazilyotgan bo‘lsa, u holda uning mavjud ta’lim dasturi bilan qay darajada bog‘liq ekanini tushuntirib bering.

2-bo‘lim. Professor-o‘qituvchilarga bo‘lgan talab

Professor-o‘qituvchilar

Ta’lim dasturini o‘qitish uchun zarur bo‘lgan professor-o‘qituvchilar, xususan, qo‘shimcha, yangi professor-o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojni bayon qiling.

Talaba-professor-o‘qituvchilar nisbatiga doir reja va professor-o‘qituvchilarning mutaxassislik sohalariga bo‘lgan talabiga izoh bering.

Agar ta’lim dasturini o‘qitish uchun maxsus professor-o‘qituvchilar bo‘lsa, ularning malakasi, tajribasi va so‘nggi nashrlari haqida ham fikr bildiring.

3-bo‘lim. Talabalarni qo‘llab-quvvatlash

Talabalarni qo‘llab-quvvatlash strategiyasi

Ta’lim dasturi bo‘yicha talabalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yondashuvning o‘ziga xos jihatlarini hamda uning niversitetning talabalarni qo‘llab-quvvatlash strategiyasiga muvofiqligini bayon qiling. Bunda darsdan tashqari maslahat berish, kasbiy yo‘naltirish, nogironligi bo‘lgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash va boshqa xizmatlarga izoh bering.

4-bo‘lim. Ta’lim dasturiga talabalarni qabul qilish

Talabalarni jalb qilish strategiyasi va kutilayotgan qabul ko‘rsatkichlari

Ushbu ta’lim dasturiga talabalarni jalb qilish uchun foydalanishi rejalashtirilgan strategiya haqida umumiy ma’lumot bering va keyingi 5 yilga mo‘ljallangan qabul prognozini taqdim eting.

Qabul talablari

Ta’lim dasturiga qabul talabalarini talablarni bayon qiling va ularning tegishli qonunchilikka muvofiqligini tushuntiring.

5-bo‘lim. Moddiy-texnik baza/resurslar

Auditoriyaga ehtiyojlar

Iltimos, ta’lim dasturini o‘qitish uchun qo‘shimcha o‘quv auditoriyalarning zarurligi haqida batafsil ma’lumot bering.

Qo‘shimcha jihozlar/o‘quv resurslari talab qilinadimi? Ushbu masalalar bo‘yicha maslahatlashuv o‘tkazilib tasdiq olinganmi?

Barcha resurslar, shu jumladan, **kutubxona, IT va talabalarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlari bilan bog‘liq resurslar** bo‘yicha izoh bering (agar bu 3-bo‘limda yoritilmagan bo‘lsa).

6-bo‘lim. Ta’lim dasturini ishlab chiqish bo‘yicha rozilik

Bakalavr ta’lim dasturi bo‘yicha

Fakultet dekani va akademik departament boshlig‘i tomonidan dastlabki rozilikni berilganini ko‘rsating.

Dekanning F.I.Sh:

Imzo: ……

Sana: ……

Akademik departament boshlig‘ining F.I.Sh:

Imzo: ……

Sana: ……

Magistratura ta’lim dasturi bo‘yicha

Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktori va Magistratura bo‘limi boshlig‘i tomonidan dastlabki rozilikni berilganini ko‘rsating.

Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktorining F.I.Sh:

Imzo: ……

Sana: ……

Magistratura bo‘limi boshlig‘ining F.I.Sh:

Imzo: ……

Sana: ……

Toshkent davlat yuridik universitetida ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

NAMUNAVIY TA’LIM DASTURI PROFILI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI BAKALAVR BOSQICHI DAVLAT BOSHQARUVI TA’LIM DASTURI PROFILI

Daraja beruvchi muassasa	TDYU
Ta’lim muassasasi	TDYU
Nazorat qiluvchi tashkilotlar	Adliya vazirligi (yuridik ta’lim bo‘yicha), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (umumiy ta’lim bo‘yicha)
Ta’lim muddati	4 yil
Beriladigan daraja	Davlat boshqaruvi
Yo‘nalish nomi	Davlat boshqaruvi
Yo‘nalish kodi	60420200
Milliy malakalar tizimi	Milliy malakalar ramkasi
Boshqa malakalar tizimi	Yevropa malakalar ramkasi 6-daraja
Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan sana	2024-yil ++avgust

Kirish

Mazkur hujjat Toshkent davlat yuridik universiteti bakalavr bosqichi Davlat boshqaruvi ta’lim dasturi profilini aks ettiradi. Mazkur hujjatda ko‘rsatilgan ma’lumotlatlar Toshkent davlat yuridik universitetida Davlat boshqaruvi fakultetini muvaffaqiyatli tamomlaydigan talabalardan kutiladigan umumiy ta’lim maqsadlari va o‘quv natijalarin batafsil belgilab beradi. Spetsifikatsiya, shuningdek, dasturning akkreditatsiyasi, qabul talablari, TDYUda amalga oshiriladigan o‘quv va ta’lim strategiyalari, o‘qitishda qo‘llaniladigan baholash usullari va mezonlari, talabalar uchun taqdim

etiladigan imkoniyatlar hamda ta’lim sifati nazoratini amalga oshirilish mexanizmi, tegishli ta’lim standartlarining nazorati va istiqbolli rivojlantirilish ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Ta’lim dasturi va darajasi

60420200– Davlat boshqaruvi.

Davlat boshqaruvi ixtisosligi dasturi davlat boshqaruvida bo‘lajak rahbarlarni tayyorlashga qaratilgan. Talabalar elektron hukumat, raqamli menejment, davlat fuqarolik xizmati, siyosatshunoslik va davlat siyosati, makro va mikroiqtisodiyot bo‘yicha asosiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Ushbu dastur davlat va xususiy sektorda (vazirliklar, qo‘mitalar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi), jamoat tuzilmalarida (siyosiy partiyalar, nodavlat va notijorat tashkilotlari), shuningdek, boshqa davlat xizmatlari tashkilotlarida faoliyat olib borishni xohlovchilar uchun mo‘ljallangan.

Akkreditatsiya

Ushbu dastur Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan akkreditatsiyadan o‘tkazilgan bo‘lib, yuridik ta’lim dasturi O‘zbekiston milliy malakalar tizimi va unga tegishli sifat talablariga muvofiq. Dastur har 4 yilda milliy akkreditatsiya jarayonidan o‘tadi.

Ta’lim dasturiga qabul talablari

Abituriyentlar mazkur ta’lim dasturiga davlat xizmatlari markazi, Interaktiv davlat xizmatlari portali yoki Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi veb-sayti orqali hujjat topshiradilar.

Abituriyentlar tarix, chet tili (o‘zbek yoki rus tilidan tashqari), O‘zbekiston tarixi, o‘zbek yoki rus tili va matematika fanlaridan kirish imtihonlarini topshiradilar. Bilim va malakalarni baholash agentligi imtihonlarni belgilaydi va tashkil qiladi. Ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi imtihon natijalariga ko‘ra o‘qishga qabul qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Batafsil ma’lumot (Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizom), https://lex.uz/docs/-3244181

Ta’lim dasturi maqsadi va dasturdan kutilgan natijalar

Toshkent davlat yuridik universitetidagi barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun umumiy ta’lim maqsadi va ta’lim dasturidan kutilayotgan natijalariga hamda o‘rganilayotgan maxsus soha bo‘yicha aniq o‘quv natijalariga ega. Ushbu maqsad va natijalar talabalarning bilim, ko‘nikma va qadriyatlarini rivojlantirishda minimal standartga erishish va kelgusi kasbiy faoliyatlarida zarur tayyorgarlikka ega bo‘lishlarini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan.

Davlat boshqaruvi ixtisosligi bo‘yicha bakalavriat dasturining umumiy ta’lim maqsadlari quyidagilardan iborat:

- davlat boshqaruvi bo‘yicha sifatli boshqaruv va adolatni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, qadriyatlarga ega bo‘lgan bitiruvchilarni tayyorlash;
- yumshoq ko‘nikmalar (transferable skills)ni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash;

- tanqidiy mushohadani rivojlantirish;
- davlat boshqaruvini o‘rganishga nisbatan global yondashish;
- mustaqil ta’lim olishni qo‘llab-quvvatlash;
- munosib bandlikni ta’minlash.

Ta’lim dasturidan kutilgan natijalar

A. Bilim

Davlat boshqaruvi bakalavriat ta’lim dasturini tamomlagan talaba quyidagilarni bajara oladi:

- asosiy tamoyillar, tushunchalar, nazariyalar, zamonaviy tendentsiyalar va istiqbollarni har tomonlama tushunishni namoyish etish (TDKN I);
- davlat boshqaruvi faoliyat ko‘rsatadigan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy muhitni tahlil qilish (TDKN II);
- davlat boshqaruvi kontekstida siyosatni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishda yondashuvlar va strategiyalarni har tomonlama tushunishni namoyish etish (TDKN III);
- davlat boshqaruvi, davlat xizmati, davlat xizmatchilarining huquq va majburiyatlarini, ularning faoliyatidagi cheklovlarning huquqiy asoslarini tushuntirib berish (TDKN IV).

B. Malakalar

Davlat boshqaruvi bakalavriat ta’lim dasturini tamomlagan talaba quyidagilarni bajara oladi:

- davlat boshqaruvi bilan bog‘liq masalalar, savollar va muammolarni aniqlash va yechim taklif etish (TDKN V);
- davlat siyosati, dasturlari va boshqaruv amaliyotini tahlil etish va baholash (TDKN VI);
- noodatiy sharoitlarda qarorlar qabul qilish (TDKN VII) ;
- turli auditoriyalarga murakkab ma’lumot va g‘oyalarni og‘zaki va yozma tarzda samarali yetkazib berish (TDKN VIII);
- ijtimoiy va madaniy xilma-xillikni inobatga olgan holda manfaatdor subyektlar bilan muzokara va hamkorlik olib borish (TDKN IX);
- qaror qabul qilish uchun ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va ularni to‘g‘ri talqin qilish (TDKN X);
- ishga joylashishga yordam beradigan ko‘nikmalarni shakllantira olish (jumladan, taym-menejmentga amal qilish, ta’sirchan rezyume yozish, mijozlar va hamkasblarda ijobiy taassurot hosil qilish, liderlik, tijoriy xabardorlik v.b.) va karyera imkoniyatlarini baholay olish (TDKN XI);.
- xorijiy til (ingliz/fransuz/nemis tili)dan o‘rtadan yuqori darajada (upper-intermediate level) muloqot qilishda, shu jumladan, og‘zaki va yozma nutqni tushunish va umumlashtirish hamda insho yozish ko‘nikmalarini rivojlanitirishda foydalanish (TDKN XII).

C. Qadriyatlar

Davlat boshqaruvi bakalavriat ta’lim dasturini tamomlagan talaba quyidagilarni bajara oladi:

- davlat xizmatida halollik, rostgo‘ylik va mas’uliyatni namoyon etgan holda etika qoidalarga amal qilish (TDKN XIII);
- davlat xizmatiga, ommaviy manfaatlar, inklusivlik, tenglik va adolatga javobgarlikni namoyon etish (TDKN XIV);
- davlat boshqaruviga doir qarorlarni qabul qilishda ochiqlikga va mas’uliyatga bo‘lgan ehtiyojni qadrlash va javobgarlikning muqarrarligini anglash (TDKN XV).

Ta’lim dasturidan kutilayotgan natijalardan tashqari, har bir modul uchun alohida moduldan kutilayotgan natijalar ham mavjud. Moduldan kutilayotgan natijalar dasturdan kutilayotgan natijalarga mos kelishi va har bir modul qanchalik darajada umumiy o‘quv natijalariga hissa qo‘shishini ko‘rsatish uchun xaritalashtirilgan. Shu sababli ushbu dasturni muvaffaqiyatli tamomlagan talaba ta’lim dasturida belgilangan natijalar, zarur bilim, ko‘nikma va qadriyatlar majmuasiga erishgan bo‘ladi.

Ta’lim dasturining tuzilishi

Har bir bakalavriat dasturi, o‘rganish mavzusidan qat’i nazar, quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

Modullar	**Modullarga ajratilgan soatlar**	**Ajratilgan kredit**
Majburiy modullar	4400	176
Tanlov modullari	700	28
Amaliyot	625	25
Yakuniy davlat attestatsiyasi	275	11

Talabalar yakuniy davlat attestatsiyasini topshirish o‘rniga, bir xil kreditga ega bo‘lgan o’z ta’lim yo‘nalishlaridagi fan bo‘yicha bitiruv ishini yozish va himoya qilishni tanlashlari mumkin.

Barcha talabalar bitiruv ishi mavzusiga asoslangan holda yoki ta’lim yo‘nalishi bilan bog‘liq bo‘lgan holda o‘zlari tanlagan tashkilotda amaliyot o‘tashlari kerak. Amaliyot bir semestr davom etadi.

O‘qitish va ta’lim strategiyalari

Toshkent davlat yuridik universitetining o‘qitish strategiyasi talabaga yo‘naltirilgan interfaol ta’limni rag‘batlantirish, global ta’lim muhitida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar uchun istiqbolli yondashuvlar mavjudligini e’tirof etadigan muhitni targ‘ib qilishdan iborat. Dastur tarkibidagi mavzular an’anaviy va zarurat tug‘ilganda masofaviy tarzda, shuningdek, talabalarning o‘qishini rag‘batlantirish va tegishli magistratura dasturida belgilangan ta’limdan kutilgan natijalarga erishishda ishonchli va samarali bo‘lgan ta’lim vositalari (bosma yoki elektron shakldagi o‘quv adabiyotlari) orqali yetkaziladi.

O‘qitish jarayoni turli ta’limiy metod va texnologiyalarni tadbiq qilgan holda amalga oshiriladi. Barcha ma’ruza mashg‘ulotlari onlayn shaklda, belgilangan seminar mashg‘ulotlari esa

universitetda bilvosita (oflayn) tarzda, interaktiv baxs-munozara shaklida tashkil etiladi. Dars mashg‘ulotlarida o‘qitishning boshqa usullari ham qo‘llaniladi, jumladan, amaliy tadqiqotlar olib borish, talabalarni juftlik va kichik guruhlarga bo‘lish, sud simulyatsiyasi, mustaqil hamda individual yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali olib boriladi. Gibrid o‘qitish (an’anaviy va masofaviy) zaruriyatga qarab qo‘llaniladi. Mahg‘ulotlar davomida barcha talabalarning dars mashg‘ulotlaridagi faol ishtirokiga alohida e’tibor qaratiladi. Shu maqsadda o‘qitish va ta’limning ta’siri, strategiya va amaliyotda takomillashtirishning mumkin bo‘lgan jihatlari haqida hisobot beradigan va monitoring qiladigan xodimlar/talabalar qo‘mitasi tayinlanishi kerak.

Assessment va baholash

Assessment modullar bo‘yicha o‘zlashtirilgan mavzular asosidagi imtihonlar, insholar, amaliy tadqiqotlar, taqdimotlar va boshqa og‘zaki formatdagi topshiriqlarni o‘z ichiga oladi.

Formativ assessment talabalar dars mashg‘ulotlari davomida vazifaning to‘g‘ri bajarganligi e’tirofi bilan bir qatorda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Talabalar o‘z fikr-mulohazalarini va fanga oid har qanday masalalarini professor o‘qituvchilar bilan muhokama qilishlariga urg‘u beriladi.

Summativ assessment oraliq nazorati imtihonlari va yakuniy nazorati imtihonlari orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorati imtihonlari (har bir modul uchun individual shaklga ega bo‘lib modul dasturida batafsil bayon etiladi) 100 ballik tizimdan 40 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat imtihonlari esa (muammoli vaziyatlarga asoslangan kazuslardan tashkil topadi va maxsus imtihon zallarida TDYUning o‘quv boshqaruv tizimi orqali kompyuterda o‘tkaziladi) 100 ballik tizimdan 60 ball bilan baholanadi. Talabalar tomonidan yozilgan imtihon javoblari professor-o‘qituvchi tomonidan baholab izohlanadi.

Oraliq nazoratini baholash tartibi har bir modul uchun alohida ishlab chiqiladi va tegishli baholash mezonlarida batafsil ko‘rsatiladi. Yakuniy nazorat imtihonlari baholash mezonlari barcha imtihonlar uchun bir xil bo‘lib, Adliya vazirligining tavsiyalari etiborga olingan holda Universitet Kengashi tomonidan moslashtiriladi va tasdiqlanadi.

Batafsil ma’lumot: https://lex.uz/docs/-2935457 (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Adliya vazirligining 2016-yil 22-apreldagi 1-2016, 4-son “Toshkent davlat yuridik universitetida o‘qitishning modul tizimi sharoitlarida talabalar bilimini nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori)

Modullarni o‘zlashtirish

Barcha talabalar universitetni bitirishdan avval barcha tegishli modullarini muvaffaqiyatli tamomlagan (o‘zlashtirgan) bo‘lishlari kerak.

Modul(lar)ni muvaffaqiyatli o‘zlashtirmagan talabalar universitet o‘quv-uslubiy boshqarmasiga apellyatsiya arizasini berish huquqiga ega. Ushbu apellyatsiya ishi tegishli soha mutaxassisi tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi. Ariza rad etilgan holda, talabalar universitetni muvaffaqiyatli bitirishlari uchun o‘zlashtirilmagan modul(lar) bo‘yicha intensiv kurslarda o‘qishlari va tegishli modullarni qayta o‘zlashtirishlari talab qilinadi. Agar talabalar 3 tadan ko‘p bo‘lmagan modullarni muvaffaqiyatli yakunlay olishmasa, ular qo‘shimcha intensiv kurslarga qatnashishlari imkoniyati beriladi. Agar ular ushbu kurslardan so‘ng ham modulni topshira olmasa yoki 3 tadan ko‘p bo‘lgan modullarni muvaffaqiyatli yakunlay olishmasa, ular keyingi o‘quv yilida magistratura

bosqichida faqat muvaffaqiyatli yakunlay olmagan modullarinigina qayta o‘zlashtirishlari va faqat ushbu modullar bo‘yicha imtihon topshiradilar.

Bundan tashqari, agar talaba o‘zlashtirilayotgan modul uchun ajratilgan umumiy soatlarning kamida 25%ida qatnashmasa, mazkur moduldan yakuniy nazorat imtihonini topshirishga ruxsat etilmaydi va o‘quv yilining may oyida tashkil etiladigan intensiv kurs(lar)da o‘qishi kerak bo‘ladi. Agar talaba intensiv kurs(lar) oxirida bironta modulni topshira olmasa, yuqorida keltirilgan qoidalar bo‘yicha, muvaffaqiyatli tamomlanmagan modullar soniga qarab, tegishli tartibda qayta o‘zlashtirishi kerak bo‘ladi.

TDYUning o‘ziga xos xususiyati har bir talabaning muvaffaqiyatga erishishlarida shart-sharoit va imkoniyat yaratilishidadur.

Talabalarni qo‘llab-quvvatlash

TDYU tomonidan talabalarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish borasida, talabalar tutorlarga biriktiriladi. Tyutorlarning asosiy funksional vazifasi talabalar o‘qishi bilan bog‘liq masalalar, tadqiqotlar olib borish va talabalar duch kelishi mumkin bo‘lgan qator shaxsiy muammolar bilan bog‘liq hollarda qo‘llab-quvvatlash va rahbarlik qilishdir. Har bir tutor 150-200 nafargacha talaba uchun mas’ul. Tutorlar o‘z guruhlari bilan tizimli muloqot olib borish, axborot sessiyalari uchun vaqt ajratish, turli individual va shaxsiy maslahatlarga professional tarzda munosabatda bo‘lish va lozim topilsa boshqa professional yordamning tegishli manbalarini, shu jumladan akademik bo‘limlar va maslahatchilar hamda shifokorlar kabi boshqa tegishli xodimlarning yordamini aniqlash va ularga yo‘naltirish uchun mas’ul. (Universitet rektorining 2021-yil 2-iyundagi 08-145-son buyrug‘i)

TDYU Talabalar assotsiatsiyasi mentorlik dasturi asosida faoliyat olib boradi, unda tajribali talabalar kamroq tajribaga ega bo‘lgan talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadilar. Bundan tashqari talabalar assotsiatsiyasi, turli to‘garaklar tashkil etish orqali, masalan, notiqlik, IT va akademik yozish bo‘yicha talabalar o‘zlarining qattiq ko’nikmalar (hard skills) va yumshoq ko’nikmalar (soft skills)ni yanada rivojlantirishdan iborat.

Bitiruvchilarning ishga joylashishi va ularni kasbga yo‘naltirish

Ushbu dastur spetsifikatsiyasi talaba o‘qishni tugatgandan so‘ng egallashi mumkin bo‘lgan natijalarni belgilash va ishga joylashishlariga yordam berish uchun xizmat qiladi. Talabalar o‘qish davomida o‘zlashtirgan bilim, malaka-ko‘nikmalarini rivojlantirishlari bilan bir qatorda bugungi kunda ish beruvchilar va bozor ehtiyojlariga mos keladigan zamonaviy bilim, ko‘nikma va qadriyatlarga ega bo‘lishlari kerak.

Universitet o‘z bitiruvchilarining kelgusida muvaffaqiyatli ishga joylashishlariga jiddiy e’tibor qaratadi. Bunda, magistratura bosqichi bitiruvchilarini mavjud bo‘sh ish o‘rinlari bilan tanishtirish, kasbga doir faoliyat tajribasiga ega bo‘lishda yordam berish va, zarurat bo‘lsa, o‘qish davomida qisqa muddatli ish bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni tizimli amalga oshirib boradi.

Mazkur masalalarda maslahat berish uchun TDYUda Karyera bo‘limi mavjud bo‘lib ushbu bo‘lim, sudyalar, advokatlar, prokurorlar, notariuslar, ombudsmanlar va boshqa yuridik sohaga aloqador bo‘lmagan mutaxassislar ishtirokida turli seminarlar tashkil etish va talabalarga ish topish yuzasidan maslahatlar berib boradi.

Karyera bo‘limi shuningdek, onlayn tarzda ham talabalarga individual maslahatlar beradi, bo‘sh ish o‘rinlari hamda ko‘ngilli ishlarni o‘z ijtimoiy tarmoqlarida e’lon qilib boradi.

Ta’lim sifatini baholash va oshirish

TDYUda ta’lim sifatini baholash va takomillashtirish bo‘yicha ichki siyosat va tartib-qoidalar mavjud. Universitet ushbu jarayonda har doim shaffoflikni ta’minlashga harakat qiladi. Bunda barcha tegishli manfaatdor tomonlar universitetning dastur spetsifikatsiyalari, ta’lim yo‘nalishlari va modullar shakli va mazmuni, shuningdek, natijalar va sifatni ta’minlash jarayonlari bo‘yicha ma’lumotlarni muntazam ravishda olishlari mumkin bo‘ladi.

TDYUning Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi dastur bo‘yicha davomli ichki monitoringni amalga oshiradi va to‘plangan natijalarga asoslanib, zarur bo‘lgan ta’limiy takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

Bundan tashqari, akkreditatsiya jarayoni doirasida TDYUning Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi har 4 yilda ichki monitoring o‘tkazadi, bu esa universitet tomonidan taqdim etilgan hisobot asosida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Tegishli barcha savollar bo‘yicha TDYUning Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi bilan bog‘laning: b.akmalxonov@tsul.uz

Nizomga 3-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
Toshkent davlat yuridik
universiteti rektori

_____ +++++

2026-yil «___» _____

QIYOSIY KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ

moduli o‘quv dasturi (sillabus)

6 KREDIT (ECTS)

Bilim sohasi:	400 000 –	*Biznes, boshqaruv va huquq*
Ta’lim sohasi:	420 000 –	Huquq
Ta’lim yo‘nalishi:	60420100 –	Yurisprudensiya

Modul haqida ma’lumot
Moduli kodi: ҚИЁСҲ3А6
Modul nomi: Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq
O‘quv semesteri: 2-semester / 202_-202_-o‘quv yili
Sho‘ba: Konstitutsiyaviy huquq
Kreditlar / Modulga ajratilgan soatlar: 6 ECTS (150 soat)
Modul rahbari: _____, _____.
(_____@tsul.uz)
Qabul vaqti: _____
Universitet Kengashi yig‘ilish bayonnomasi: _____-son
___ _____ 2026-yil

Toshkent – 2026 y.

I. MODUL TAVSIFI

Har bir davlat o‘zining konstitutsiyaviy tizimiga ega. Xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyaviy tizimi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tizimidan farq qiladi. Xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyaviy tizimini qiyoslagan holda o‘rganish konstitutsiyaviy huquqdan olingan bilimlarni boyitadi, konstitutsiyaviy tizimlardagi farqlarni tushunib yetishga olib keladi. Milliy konstitutsiyaviy normalarning konstitutsiyaviy borliqdagi o‘rnini anglab yetishga imkon beradi. Konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarning rivojlanish istiqbollarini aniqlashga yordam beradi.

Qiyosiy-konstitutsiyaviy huquq moduli aynan yuqorida nazarda tutilgan holatlardan kelib chiqib, unda xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalari qiyoslagan holda o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur modul sohaga doir amaliy ko‘nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Modul o‘zbek, rus va ingliz tillarida olib boriladi.

II. MODULNING ASOSIY TALABLARI

Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq moduli bakalavriat 3-kurs talabalari uchun mo‘ljallangan. Modulni o‘zlashtirishga kirishishda talabalardan Davlat va huquq nazariyasi, Konstitutsiyaviy huquq modullari bo‘yicha bazaviy bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi.

III. MODUL TARKIBI

6 ECTS. 28 nazariy qism soati, 27 amaliy qism soati.

Nazariy qism		Amaliy qism	Baholash	Mustaqil ta’lim	Jami
Ma’ruza mashg‘uloti	Seminar mashg‘uloti				
20	8	27	5	90	150

IV. MODULNING MAQSADI

Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq modulining asosiy maqsadi muayyan xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarini qiyosiy o‘rganish, qiyoslash asnosida konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil etish va milliy konstitutsiyaviy tizimning konstitutsiyaviy borliqdagi o‘rnini tushunib yetishga qaratilgan bilimlar va ularni qo‘llash bilan bog‘liq ko‘nikmlarni shakllantirishdir.

V. MODULDAN KUTILGAN NATIJALAR (MKN)

Modulni yakunlash natijasida talabalar:

1) Muayyan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ajrata oladilar **(MKN I)**;

2) Muayyan xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarida inson huquqlarini ta’minlash, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini tashkil etish va faoliyat yuritishiga doir muhim jihatlarni tushuntirib bera oladilar **(MKN II)**;

3) Muayyan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy tizimlarining afzalliklari va va kamchiliklarini tanqidiy tahlil eta oladilar **(MKN III)**;

4) Konstitutsiyaviy-huquqiy tadqiqot olib borish va tadqiqot natijalarini rasmiylashtira oladilar **(MKN IV)**;

5) Muayyan xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalari va konstitutsiyaviy amaliyotidan kelib chiqib konstitutsiyaviy normalarni yarata oladilar **(MKN V)**.

VI. ASSESSMENT VA BAHOLASH

Moduldan kutilgan natijalarga erishilganlik quyidagi assessmentlar orqali baholanadi:

1) **1-oraliq nazorat (nazariy).**

Baholanadi: MKN I, MKN III

Assessment topshirig‘i: Tanlangan 2 ta xorijiy davlat konstitutsiyasining asosiy xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari bo‘yicha 2 ta slayddan iborat infografika tayyorlash.

Assessment rubrikasi: sillabusning 2-ilovasida berilgan.

Baholash: 20 ball

2) **2-oraliq nazorat (amaliy).**

Baholanadi: MKN IV va MKN V

Assessment topshirig‘i: Talabalar muayyan konstitutsiyaviy institut bo‘yicha konstitutsiyaviy-huquqiy tadqiqot olib boradilar va “policy brief” tayyorlaydilar. Unda “A” davlat uchun tadqiq etilgan konstitutsiyaviy institut bo‘yicha konstitutsiyaviy normalar yaratilishi va taklif etilishi kerak.

Assessment rubrikasi: sillabusning 3-ilovasida berilgan.

Baholash: 20 ball

3) **Yakuniy nazorat.**

Baholanadi: MKN I, MKN II, MKN III

Assessment topshirig‘i: Talabalarga keys va u bilan bog‘liq nazariy va amaliy savollar beriladi. Talabalar savollarga javobni 2 soatlik vaqt oralig‘ida auditoriya sharoitida hamda kuzatuv ostida komyuterda universitetning elektron ta’lim platformasida yozadilar.

Assessment rubrikasi: sillabusning 4-ilovasida berilgan.

Baholash: 60 ball.

Oraliq va yakuniy nazorati baholash mezonlari (assessment rubrikasi) moduldan kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni o‘lchab berishga va shunga munosib tegishli ballni qo‘yish uchun asos bo‘ladi.

Nazorat ishini tekshirish so‘ngida konstruktiv taqriz **(feedback)** beriladi.

Yakuniy nazoratga katta ball berilishini inobatga olib hamda bunda inson omilini minimallashtirish maqsadida yakuniy nazorat ishi sun’iy intellekt yordamida tekshriladi. Bunda sun’iy intellekt tegishli ballni baholovchi professor-o‘qituvchiga baholash mezonlariga tayanib konstruktiv taqriz (feedback) bilan birga taklif etadi. Professor-o‘qituvchi taklif etilgan ballni to‘g‘ri qo‘yilgani va taqriz (feedback) asosli va konstruktiv ekaniga ishonch hosil qiladi. Zarur deb topilganda o‘zgartirish kiritadi. Yakuniy ball professor-o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladi va taqriz (feedback) beriladi.

Seminar mashg‘ulotini olib boradigan professor-o‘qituvchi baholash mezonlariga tayangan holda talabalarni oraliq va yakuniy nazoratiga tayyorgarlik ko‘rib borishlariga yo‘naltirib boradi.

Professor-o‘qituvchi har bir darsda moduldan va individual darsdan kutilayotgan natijalarni baholashga qaratilgan **formativ assessment (formative assessment)** o‘tkazib boradi. Formativ assessmentning maqsadi talabani ball ko‘rinishida baholash emas, balki uning moduldan va individual darsdan kutilayotgan natijalarga erish uchun qo‘llab-quvvatlashdir. Bunda talabaning ishi, yozma yoki og‘zaki javobiga individual yoki umumiy baho qo‘yilmaydi. Unga tegishli shaklda konstruktiv taqriz berib boriladi.

Talabalar oraliq va yakuniy nazorat yozma ishlarini tayyorlashda **Akademik halollik va tadqiqot etikasi kodeksi** talablariga qat’iy rioya etishi talab qilinadi. Talaba tomonidan akademik halollik talablari buzilganda, jumladan mualliflik huquqi o‘zlashtirilgan **(plagiat)** holatda, bunday yozma ishlarga nol ball qo‘yiladi yoki oldin qo‘yilgan nazorat reyting balli bekor qilinadi hamda bu talabaga nisbatan tegishli chora ko‘rilishi uchun asos bo‘ladi.

VII. O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI OLIB BORISH

Modul mashg‘ulotlari ma’ruza, seminar, amaliyot va mustaqil ta’lim shakllarida tashkil etiladi.

O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va olib borish talabaga yo‘naltirilgan ta’lim (**student-centred teaching**) tamoyili asosida olib boriladi.

O‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda professor-o‘qituvchilar **fasilitator** rolida bo‘lib, talabalar tomonidan darsga tayyorgarlik ko‘rib kelishda orttirgan bilimlarini yanada yuksaltirish va ularning soha bilan bog‘lik yuridik ko‘nikmalari va qadriyatlarini shakllantirishga **ko‘maklashadilar**.

Talabalar professor-o‘qituvchilar bilan darsda samarali muloqot qila olishlari uchun darsga tayyorgarlik ko‘rib kelishlari zarur.

O‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llanadigan metodlar moduldan kutilgan natijalar (MKN) va darsdan kutilgan natijalar (DKN)ga erishishga qaratiladi.

Ma’ruza mashg’ulotlarini olib borishda professor-o‘qituvchilar tomonidan nazariy masalalar amaliy misollar asosida o‘qitiladi (problem-based learning). Bu orqali talabada muammoli vaziyatni tahlil va xulosa qilish kabi “yumshoq” ko‘nikmalar (soft skills) va nazariy bilimlarni shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Seminar mashg‘ulotlarida Suqrot metodi, keys-stadi metodlaridan foydalaniladi.

Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida moduldan kutilgan natijalar (MKN) va darsdan kutilgan natijalar (DKN) hamda talabalarning ehtiyojidan kelib chiqib boshqa turli metodlar (interkativ taqdimotlar, kichik guruhlardagi muhokama, loyiha ishi va h.k.)dan ham foydalanilishi mumkin.

Modul mavzularining tarkibiy qismlari va mavzu doirasida tavsiya etiladigan adabiyotlar haqidagi batafsil ma’lumotlar ushbu **sillabusning ilovasi**da keltirilgan.

VIII. MODULNING AMALIYOT QISMI

Modulning mustaqil ta’limdan tashqari soatlarining 50 foizi amaliyotga ajratilgan (sillabusning X qismi).

Amaliyot tashkilotidagi mashg‘ulot dars jadvallarida belgilangan hafta kunlarida seminar o‘qituvchisi tomonidan amaliyot tashkiloti xodimi – mentor bilan hamkorlikda olib boriladi.

Amaliyot materiallarining elektron shakllari modul papkaning amaliyot qismida beriladi.

Talabalar amaliyot bo‘yicha **reflektiv jurnal** yuritadilar. Unda talabalar o‘zlarida tegishli amaliy ko‘nikmalarning shakllanish va rivojlanish jarayonini kuzatib boradilar.

IX. MUSTAQIL TA’LIM

Mustaqil ta’lim talabaga ma’ruza va seminar mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rish, xususan, tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘qish, muammoli ta’lim bo‘yicha berilgan topshiriqlar va kazuslarning yechimiga tayyorgarlik ko‘rish, ma’ruza va seminar mashg‘ulotida ulgurilmay qolingan qismni mustaqil o‘zlashtirish va imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish doirasida kechadi.

Professor-o‘qituvchilar har bir guruhning umumiy o‘zlashtirish darajasi, guruhning umumiy yoki talabalarning modulni o‘zlashtirish bilan bog‘liq ehtiyoji va talabidan kelib chiqib mustaqil ta’lim uchun individual va alohida topshiriq berishi mumkin.

X. MODUL MAVZULARI

№	Mavzular	Nazariy qism soati		Amaliy qism soati	Mustaqil ta’lim soatlari
		Ma’ruza	Seminar		
1.	**1-mavzu.** Qiyosiy	2	2		6

	konstitutsiyaviy huquqqa kirish. Konstitutsiyalarni qiyoslash				
2.	**2-mavzu.** Inson huquqlarini konstitutsiyaviy mustahkamlash	2		4	12
3.	**3-mavzu.** Siyosiy partiyalar va saylovlarni konstitutsiyaviy tartibga solish	2		4	9
4.	**4-mavzu.** Davlat shaklining konstitutsiyaviy asoslari	2		2	9
5	**5-mavzu.** Davlat boshlig‘ining konstitutsiyasiviy maqomi	2	2	2	9
6.	**6-mavzu.** Parlament faoliyati va qonun ijodkorligi	2		4	12
7.	**7-mavzu.** Ijro etuvchi hokimiyat va hukumat faoliyatini konstitutsiyaviy tartibga solish	2		3	6
8.	**8-mavzu.** Sud hokimiyati va konstitutsiyaviy nazoratni tartibga solish	2	2	4	9
9.	**9-mavzu.** Mahalliy boshqaruv va o‘zini o‘zi boshqarishni konstitutsiyaviy tartibga solish	2		2	9
10.	**10-mavzu.** Konstitutsiyaviy rivojlanish tendensiyalari	2	2	2	9
Jami:		20	11	10	

		(5 – baholash)		
	28		**27**	**90**
	6 ECTS			

Sillabusga
1-ILOVA

MODUL KONTENTI

1-mavzu. Qiyosiy konstitutsiyaviy huquqqa kirish. Konstitutsiyalarni

qiyoslash

1. Dunyo miqyosida konstitutsiyalarni qabul qilish tendensiyalari qanday kechgan?

2. Qiyosiy konstitutsiyaviy huquqning maqsadi, predmeti, uni o‘rganishning yurist faoliyatidagi ahamiyati nimadan iborat?

3. Konstitutsiyani tushunish: Lokk va Gobbas konstitutsiyasi va uning bugungi zamondagi ahamiyati.

4. Konstitutsiyani tasniflash: tor va keng, qattiq va yumshoq, revalyutsion va evalyutsion konstitutsiyalar.

5. Konstitutsiyalarni qiyoslash: qiyoslash metodlari, elektron resurslar, e-platformalar hamda sun’iy intellektdan foydalanish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

Ginsburg T. How Long Should Constitutions Endure? // Ginsburg T., Dixon R. (ed.). Comparative constitutional law. Edward Elgar Publishing, 2011. 112-123 pp.

Ginsburg T. Conceptualizing Constitutions // Zachary Elkins, Tom Ginsburg, and James Melton. The Endurance of National Constitutions. Cambridge University Press, 2009. 38-47 pp.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

Hardin R. What Constitutions Do. // Galligan D., Versteeg M. Social and Political Foundations of Constitutions. Cambridge University Press, 2009. 64-67 pp. https://books.google.co.uz/

What is a Constitution? Principle and Concepts. International IDEA Constitution-Building Primer. https://www.idea.int/sites/default/files/publications/what-is-a-constitution-primer.pdf

Sillabusga
2-ILOVA

<u>1-ORALIQ NAZORATI (NAZARIY)</u> BO‘YICHA BAHOLASH MEZONLARI
(ASSESSMENT RUBRIKASI)

Baholanadi: MKN I, MKN III
Assessment topshirig‘i: Tanlangan 2 ta xorijiy davlat konstitutsiyasining asosiy xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari bo‘yicha 2 ta slayddan iborat infografika tayyorlash.
Baholash: 20 ball

№	1-oraliq nazoratida baholanadigan moduldan kutilgan natija (MKN)	Baholash mezonlari				Qo‘yilgan ball (foizda)
		Qoniqarsiz (0 — 59%)	**Qoniqarli** (60 — 69,9%)	**Yaxshi** (70 — 89,9%)	**A’lo** (90 — 100%)	
1.	Muayyan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ajrata oladilar **(MKN I)**	- Xususiyatlar noto‘g‘ri yoki aniqlanmagan; - Infografika tartibsiz va tushunarsiz.	- Ayrim xususiyatlar aniqlangan; - Infografika mavjud, lekin yuzaki.	- Asosiy xususiyatlar aniq ajratilgan; - Infografika mantiqli va tushunarli.	- Xususiyatlar tizimli va aniq ajratilgan; - Infografika professional, vizual jihatdan kuchli.	
2.	Muayyan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy tizimlarining afzalliklari va kamchiliklarini tanqidiy tahlil eta oladilar **(MKN III)**	- Afzallik/kamchiliklar faqat sanab o‘tilgan; - “Why” (asoslash) yo‘q yoki noto‘g‘ri.	- Ayrim “Why” mavjud, lekin yuzaki; - Sabab–oqibat bog‘lanishi zaif.	- Afzallik/kamchiliklar “Why” bilan tushuntirilgan. - Sabab–oqibat bog‘lanishi aniq.	- Har bir element “Why” bilan asoslangan - Sabab–oqibat tahlili ko‘rsatib berilgan va mantiqan izchil; - Qiyosiy yondashuv aniq	

					ko‘rinadi.	
Jami o‘rtacha ball (foizda):						
Oraliq nazorati balli:						
Umumiy konstruktiv taqriz:		**1) Ishning ijobiy jihatlari:** **2) Ishni takomillashtirish kerak bo‘lgan jihatlar va tavsiyalar:**				

Sillabusga
3-ILOVA

2-ORALIQ NAZORATI (AMALIY) BO‘YICHA BAHOLASH MEZONLARI
(ASSESSMENT RUBRIKASI)

Baholanadi: MKN IV va MKN V

Assessment topshirig‘i: Talabalar muayyan konstitutsiyaviy institut bo‘yicha konstitutsiyaviy-huquqiy tadqiqot olib boradilar va “policy brief” tayyorlaydilar. Unda “A” davlat uchun tadqiq etilgan konstitutsiyaviy institut bo‘yicha konstitutsiyaviy normalar yaratilishi va taklif etilishi kerak.

Baholash: 20 ball

№	2-oraliq nazoratida baholanadigan moduldan kutilgan natija (MKN)	Baholash mezonlari				Qo‘yilgan ball (foizda)
		Qoniqarsiz (0 — 59%)	**Qoniqarli** (60 — 69,9%)	**Yaxshi** (70 — 89,9%)	**A’lo** (90 — 100%)	
1.	Konstitutsiyaviy-huquqiy tadqiqot olib borish va tadqiqot natijalarini rasmiylashtira oladilar **(MKN IV)**	- Tadqiqot yetarli emas yoki noto‘g‘ri; - manbalar ko‘rsatilmagan yoki ishonchsiz; - Policy brief tuzilmasiga amal qilinmagan yoki tartibsiz.	- Tadqiqot qisman amalga oshirilgan; - manbalar cheklangan; - policy brief yozilishi yuzaki va izchillik yetishmaydi.	- Yetarli va mantiqiy izchilikdagi tadqiqot olib borilgan; - tegishli manbalar ishlatilgan; - policy brief tuzilmasi aniq va mantiqan bog‘langan.	- Chuqur va tizimli tadqiqot olib borilgan; - ishonchli va xilma-xil manbalardan foydalanilgan; - policy brief professional darajada, aniq va izchil rasmiylashtirilgan	
2.	Muayyan xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalari va konstitutsiyaviy	- Konstitutsiyaviy norma ishlab chiqilmagan yoki	- Norma mavjud, lekin umumiy yoki	- Norma aniq va huquqiy shaklga	- Norma professional	

	amaliyotidan kelib chiqib konstitutsiyaviy normalarni yarata oladilar **(MKN V)**	noto‘g‘ri - huquqiy shaklga mos emas - tadqiqot bilan bog‘lanmagan.	noaniq; - qisman tadqiqotga asoslangan.	mos; - tadqiqot va qiyosiy tahlilga asoslangan.	darajada ishlab chiqilgan - Aniq, tushunarli va to‘liq asoslangan. - qiyosiy tahlilga chuqur tayangan.	
Jami o‘rtacha ball (foizda):						
Oraliq nazorat balli:						
Umumiy konstruktiv taqriz:	**1) Ishning ijobiy jihatlari:** **2) Ishni takomillashtirish kerak bo‘lgan jihatlar va tavsiyalar:**					

Sillabusga
4-ILOVA

YAKUNIY NAZORAT BO‘YICHA BAHOLASH MEZONLARI (ASSESSMENT RUBRIKASI)

Baholanadi: MKN I, MKN II, MKN III

Assessment topshirig‘i: Talabalarga keys va u bilan bog‘liq nazariy va amaliy savollar beriladi. Talabalar savollarga javobni 2 soatlik vaqt oralig‘ida auditoriya sharoitida hamda kuzatuv ostida komyuterda universitetning elektron ta’lim platformasida yozadilar.

Baholash: 60 ball

№	Yakuniy nazoratida baholanadigan moduldan kutilgan natija (MKN)	Baholash mezonlari				Qo‘yilgan ball (foizda)
		Qoniqarsiz (0 — 59%)	**Qoniqarli** (60 — 69,9%)	**Yaxshi** (70 — 89,9%)	**A’lo** (90 — 100%)	
1.	Muayyan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ajrata oladilar **(MKN I)**	- Konstitutsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rtasidagi farqlar ajrata olinmagan yoki noto‘g‘ri ajratilgan; - javob asosan tavsifiy yoki mavzudan chetga chiqilgan; - xorijiy davlatlar misollari keltirilmagan yoki noto‘g‘ri - konstitutsiyaviy tushunchalar noto‘g‘ri	- Konstitutsiyalar o‘rtasidagi ayrim asosiy farqlar qisman ajrata olingan; - javob yuzaki, qiyosiy tahlil cheklangan; - misollar mavjud, lekin umumiy yoki yetarlicha asoslanmagan - huquqiy	- Konstitutsiyalarning asosiy o‘ziga xos xususiyatlari aniq ajratilgan; - qiyosiy tahlil mavjud va mantiqan asoslangan; - tegishli xorijiy davlatlar misollari to‘g‘ri keltirilgan - huquqiy	- Konstitutsiyaviy tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlari chuqur va tizimli ajratilgan; - mukammal qiyosiy tahlil olib borilgan (bir nechta davlatlar asosida); - misollar aniq, dolzarb va tahlilni kuchaytirgan; - huquqiy	

		qo‘llangan.	tushunchalar qisman to‘g‘ri qo‘llanilgan.	terminologiya asosan to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llangan.	tushunchalar aniq, professional va izchil qo‘llangan.	
2.	Muayyan xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarida inson huquqlarini ta’minlash, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini tashkil etish va faoliyat yuritishiga doir muhim jihatlarni tushuntirib bera oladilar **(MKN II)**	- Inson huquqlari yoki hokimiyatlar tizimi haqida noto‘g‘ri yoki juda cheklangan tushuncha mavjid; - tushuntirish izchil emas yoki mavzudan chetga chiqilgan; - xorijiy davlatlar misollari yo‘q yoki noto‘g‘ri; - huquqiy tushunchalar noto‘g‘ri qo‘llangan.	- Inson huquqlari yoki hokimiyatlar tizimining ayrim jihatlarini qisman tushuntira olgan; - javob yuzaki, tizimlilik yetishmaydi; - misollar bor, lekin umumiy yoki yetarlicha asoslanmagan; - huquqiy tushunchalar qisman to‘g‘ri qo‘llangan.	- Inson huquqlari va hokimiyatlar tizimining asosiy jihatlari aniq tushuntirilgan; - tushuntirish mantiqan bog‘langan va yetarli darajada tizimli - tegishli xorijiy davlatlar misollari keltirilgan; - huquqiy terminologiya umuman to‘g‘ri qo‘llanadi	- Inson huquqlari kafolatlari va hokimiyatlar tizimi chuqur va tizimli tushuntirilgan; - turli davlatlar misolida mukammal tahlil va izoh berilgan; - misollar aniq, dolzarb va tahlilni boyitgan; - huquqiy tushunchalar professional va izchil qo‘llangan.	
3.	Muayyan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy tizimlarining afzalliklari va va kamchiliklarini tanqidiy tahlil eta oladilar **(MKN III)**	- Afzallik va kamchiliklar aniqlay olinmagan yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilgan; - tanqidiy tahlil mavjud emas, faqat tavsifiy javob berilgan; - misollar yo‘q yoki	- Ayrim afzallik va kamchiliklar qisman aniqlangan; - tanqidiy tahlil yuzaki yoki cheklangan; - misollar bor, lekin chuqur	- Afzallik va kamchiliklar aniq va mantiqan tahlil qilingan; - tanqidiy yondashuv mavjud; - tegishli xorijiy	- Konstitutsiyaviy tizimlar chuqur tanqidiy tahlil qilingan; - afzallik va kamchiliklar kompleks va solishtirma asosda	

		noto‘g‘ri; - xulosalar asoslanmagan.	asoslanmagan; - xulosalar qisman asoslangan.	davlatlar misollari bilan asoslangan; - xulosalar mantiqan to‘g‘ri va asoslanga	baholangan; - bir nechta davlatlar misolida tahlil olib borilgan - Xulosalar aniq, asosli va mustaqil fikr mavjud.	
Jami o‘rtacha ball (foizda):						
Yakuniy nazorat balli:						
Umumiy konstruktiv taqriz:		**1) Ishning ijobiy jihatlari:** **2) Ishni takomillashtirish kerak bo‘lgan jihatlar va tavsiyalar:**				

Nizomga 4-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
Toshkent davlat yuridik
universiteti rektori

_____ +++++

2026-yil «___» _____

QIYOSIY KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ

moduli o‘quv dasturi (sillabus)

6 KREDIT (ECTS)

Bilim sohasi:	400000	– *Biznes, boshqaruv va huquq*
Ta’lim sohasi:	420000	– Huquq
Ta’lim yo‘nalishi:	60420100	– Yurisprudensiya

Modul haqida ma’lumot
Moduli kodi: ҚИЁСҲ3А6
Modul nomi: Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq
O‘quv semesteri: 2-semester / 2026-2027-o‘quv yili
Sho‘ba: Konstitutsiyaviy huquq
Kreditlar / Modulga ajratilgan soatlar: 6 ECTS (150 soat)
Modul rahbari: ++++, +++++.
(+++@tsul.uz)
Qabul vaqti: ++++
Universitet Kengashi yig‘ilish bayonnomasi: ___ _____ 2026-yil

Toshkent – 2026 y.

I. MODUL TAVSIFI

Har bir davlat o‘zining konstitutsiyaviy tizimiga ega. Xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyaviy tizimi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tizimidan farq qiladi. Xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyaviy tizimini qiyoslagan holda o‘rganish konstitutsiyaviy huquqdan olingan bilimlarni boyitadi, konstitutsiyaviy tizimlardagi farqlarni tushunib yetishga olib keladi. Milliy konstitutsiyaviy normalarning konstitutsiyaviy borliqdagi o‘rnini anglab yetishga imkon beradi. Konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarning rivojlanish istiqbollarini aniqlashga yordam beradi.

Qiyosiy-konstitutsiyaviy huquq moduli aynan yuqorida nazarda tutilgan holatlardan kelib chiqib, unda xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalari qiyoslagan holda o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur modul sohaga doir amaliy ko‘nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Modul o‘zbek, rus va ingliz tillarida olib boriladi.

II. MODULNING ASOSIY TALABLARI

Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq moduli bakalavriat 3-kurs talabalari uchun mo‘ljallangan. Modulni o‘zlashtirishga kirishishda talabalardan Davlat va huquq nazariyasi, Konstitutsiyaviy huquq modullari bo‘yicha bazaviy bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi.

III. MODUL TARKIBI

6 ECTS. 60 auditoriya soati.

Ma’ruza	Seminar mashg‘uloti	Baholash	Mustaqil ta’lim	Jami
20	35	5	90	150

IV. MODULNING MAQSADI

Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq modulining asosiy maqsadi muayyan xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarini qiyosiy o‘rganish, qiyoslash asnosida konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil etish va milliy konstitutsiyaviy tizimning konstitutsiyaviy borliqdagi o‘rnini tushunib yetishga qaratilgan bilimlar va ularni qo‘llash bilan bog‘liq ko‘nikmlarni shakllantirishdir.

V. MODULDAN KUTILGAN NATIJALAR (MKN)

Modulni yakunlash natijasida talabalar:

1) Muayyan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ajrata oladilar **(MKN I)**;

2) Muayyan xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarida inson huquqlarini ta’minlash, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini tashkil etish va faoliyat yuritishiga doir muhim jihatlarni tushuntirib bera oladilar **(MKN II)**;

3) Muayyan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy tizimlarining afzalliklari va va kamchiliklarini tanqidiy tahlil eta oladilar **(MKN III)**;

4) Konstitutsiyaviy-huquqiy tadqiqot olib borish va tadqiqot natijalarini rasmiylashtira oladilar **(MKN IV)**;

5) Muayyan xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalari va konstitutsiyaviy amaliyotidan kelib chiqib konstitutsiyaviy normalarni yarata oladilar **(MKN V)**.

VI. ASSESSMENT VA BAHOLASH

Moduldan kutilgan natijalarga erishilganlik quyidagi assessmentlar orqali baholanadi:

1) **1-oraliq nazorat.**

Baholanadi: MKN I, MKN III

Assessment topshirig‘i: Tanlangan 2 ta xorijiy davlat konstitutsiyasining asosiy xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari bo‘yicha 2 ta slayddan iborat infografika tayyorlash.

Assessment rubrikasi: sillabusning 2-ilovasida berilgan.

Baholash: 20 ball

2) **2-oraliq nazorat.**

Baholanadi: MKN IV va MKN V

Assessment topshirig‘i: Talabalar muayyan konstitutsiyaviy institut bo‘yicha konstitutsiyaviy-huquqiy tadqiqot olib boradilar va “policy brief” tayyorlaydilar. Unda “A” davlat uchun tadqiq etilgan konstitutsiyaviy institut bo‘yicha konstitutsiyaviy normalar yaratilishi va taklif etilishi kerak.

Assessment rubrikasi: sillabusning 3-ilovasida berilgan.

Baholash: 20 ball

3) **Yakuniy nazorat.**

Baholanadi: MKN I, MKN II, MKN III

Assessment topshirig‘i: Talabalarga keys va u bilan bog‘liq nazariy va amaliy savollar beriladi. Talabalar savollarga javobni 2 soatlik vaqt oralig‘ida auditoriya

sharoitida hamda kuzatuv ostida komyuterda universitetning elektron ta’lim platformasida yozadilar.

Assessment rubrikasi: sillabusning 4-ilovasida berilgan.

Baholash: 60 ball.

Oraliq va yakuniy nazorati assessment rubrikalari (baholash mezonlari) moduldan kutilgan natijalarga qay darajada erishilganlikni o‘lchab berishga va shunga munosib tegishli ballni qo‘yish uchun asos bo‘ladi.

Nazorat ishini tekshirish so‘ngida konstruktiv taqriz **(feedback)** beriladi.

Yakuniy nazoratga katta ball berilishini inobatga olib hamda bunda inson omilini minimallashtirish maqsadida yakuniy nazorat ishi sun’iy intellekt yordamida tekshriladi. Bunda sun’iy intellekt tegishli ballni baholovchi professor-o‘qituvchiga baholash mezonlariga tayanib konstruktiv taqriz (feedback) bilan birga taklif etadi. Professor-o‘qituvchi taklif etilgan ballni to‘g‘ri qo‘yilgani va taqriz (feedback) asosli va konstruktiv ekaniga ishonch hosil qiladi. Zarur deb topilganda o‘zgartirish kiritadi. Yakuniy ball professor-o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladi va taqriz (feedback) beriladi.

Seminar mashg‘ulotini olib boradigan professor-o‘qituvchi baholash mezonlariga tayangan holda talabalarni oraliq va yakuniy nazoratiga tayyorgarlik ko‘rib borishlariga yo‘naltirib boradi.

Professor-o‘qituvchi har bir darsda moduldan va individual darsdan kutilayotgan natijalarni baholashga qaratilgan **formativ assessment (formative assessment)** o‘tkazib boradi. Formativ assessmentning maqsadi talabani ball ko‘rinishida baholash emas, balki uning moduldan va individual darsdan kutilayotgan natijalarga erish uchun qo‘llab-quvvatlashdir. Bunda talabaning ishi, yozma yoki og‘zaki javobiga individual yoki umumiy baho qo‘yilmaydi. Unga tegishli shaklda konstruktiv taqriz berib boriladi.

Talabalar oraliq va yakuniy nazorat yozma ishlarini tayyorlashda **Akademik halollik va tadqiqot etikasi kodeksi** talablariga qat’iy rioya etishi talab qilinadi. Talaba tomonidan akademik halollik talablari buzilganda, jumladan mualliflik huquqi o‘zlashtirilgan **(plagiat)** holatda, bunday yozma ishlarga nol ball qo‘yiladi yoki oldin qo‘yilgan nazorat reyting balli bekor qilinadi hamda bu talabaga nisbatan tegishli chora ko‘rilishi uchun asos bo‘ladi.

VII. O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI OLIB BORISH

Modul mashg‘ulotlari ma’ruza va seminar shaklida tashkil etiladi. Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida qo‘llanadigan metodlar modul va darsning maqsadi hamda kutilayotgan natijalaridan kelib chiqadi. Mashg‘ulotlarni olib borishda professor-o‘qituvchilar **fasilitator** rolida bo‘lib, talabalar tomonidan darsga tayyorgarlik ko‘rib

kelishda orttirgan bilimlarini yanada yuksaltirish va ularning soha bilan bog‘lik yuridik ko‘nikmalari va qadryatlarini shakllantirishga **ko‘maklashadilar**.

Barcha darslar talaba diqqat markazda bo‘lgan ta’lim (**student-centred teaching**) tamoyili asosida interaktiv metodlarni qo‘llagan holda olib boriladi.

Talabalar ma’ruza va seminar darslarga tayyorgarlik ko‘rib kelishlari kerak.

Ma’ruza mashg’ulotlarini olib borishda professor-o‘qituvchilar tomonidan interaktiv ma’ruza va interaktiv savol-javob − Suqrot metodidan foydalaniladi. Bu talabalarning tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlanishiga, qiyosiy tahlil etish orqali muammo va masalalarga yechim topishga undaydi. Bunda muammoli savollarning, keyslarning aniq yechimi bo‘lmasligi mumkin.

Professor-o‘qituvchilar ma’ruza mashg‘ulotining maqsadi va kutiladigan natijasidan kelib chiqib boshqa turli metodlarni qo‘llagan holda darslarni olib borishlari mumkin.

Seminar mashg‘ulotlari asosan talabalarning ma’ruza mashg‘ulotlarida olingan, seminarga tayyorgarlik ko‘rish natijasida o‘zlashtirgan bilimlar yuzasidan tanqidiy-tahliliy fikr yuritish hamda sohaga doir amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular keys-stadi, interkativ taqdimotlar, kichik guruhlardagi muhokama, loyiha ishi, boshqa shu kabi metodlarni qamrab oladi.

Modul mavzularining tarkibiy qismlari va mavzu doirasida tavsiya etiladigan adabiyotlar haqidagi batafsil ma’lumotlar ushbu **sillabusning ilovasi**da keltirilgan. Mavzuning tarkibiy qismlari va tavsiya etilgan adabiyotlar professor-o‘qituvchilarga kafolatlangan akademik erkinlikdan kelib chiqib farqlanishi mumkin.

VIII. MUSTAQIL TA’LIM

Mustaqil ta’lim talabaga ma’ruza va seminar mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rish, xususan, tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘qish, kazuslarning yechimiga tayyorgarlik ko‘rish, ma’ruza va seminar mashg‘ulotida ulgurilmay qolingan qismni mustaqil o‘zlashtirish va imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish doirasida kechadi.

Professor-o‘qituvchilar har bir guruhning umumiy o‘zlashtirish darajasi, guruhning umumiy yoki talabalarning modulni o‘zlashtirish bilan bog‘liq ehtiyoji va talabidan kelib chiqib mustaqil ta’lim uchun individual va alohida topshiriq berishi mumkin.

IX. MODUL MAVZULARI

№	Mavzular	Jami soat	Auditoriya soati		Mustaqil ta’lim soatlari
			Ma’ruza	Seminar	

1.	**1-mavzu.** Qiyosiy konstitutsiyaviy huquqqa kirish. Konstitutsiyalarni qiyoslash	4	2	2	6
2.	**2-mavzu.** Inson huquqlarini konstitutsiyaviy mustahkamlash	6	2	4	12
3.	**3-mavzu.** Siyosiy partiyalar va saylovlarni konstitutsiyaviy tartibga solish	6	2	4	9
4.	**4-mavzu.** Davlat shaklining konstitutsiyaviy asoslari	5	2	3	9
5	**5-mavzu.** Davlat boshlig‘ining konstitutsiyasiviy maqomi	6	2	4	9
6.	**6-mavzu.** Parlament faoliyati va qonun ijodkorligi	6	2	4	12
7.	**7-mavzu.** Ijro etuvchi hokimiyat va hukumat faoliyatini konstitutsiyaviy tartibga solish	6	2	4	6
8.	**8-mavzu.** Sud hokimiyati va konstitutsiyaviy nazoratni tartibga solish	6	2	4	9
9.	**9-mavzu.** Mahalliy boshqaruv va o‘zini o‘zi boshqarishni	6	2	4	9

	konstitutsiyaviy tartibga solish				
10.	**10-mavzu.** Konstitutsiyaviy rivojlanish tendensiyalari	4	2	2	9
	Jami:	60	20	35 (5 – baholash)	90

Sillabusga
1-ILOVA

MODUL KONTENTI

1-mavzu. Qiyosiy konstitutsiyaviy huquqqa kirish. Konstitutsiyalarni qiyoslash

6. Dunyo miqyosida konstitutsiyalarni qabul qilish tendensiyalari qanday kechgan?
7. Qiyosiy konstitutsiyaviy huquqning maqsadi, predmeti, uni o‘rganishning yurist faoliyatidagi ahamiyati nimadan iborat?
8. Konstitutsiyani tushunish: Lokk va Gobbas konstitutsiyasi va uning bugungi zamondagi ahamiyati.
9. Konstitutsiyani tasniflash: tor va keng, qattiq va yumshoq, revalyutsion va evalyutsion konstitutsiyalar.
10. Konstitutsiyalarni qiyoslash: qiyoslash metodlari, elektron resurslar, e-platformalar hamda ChatGPTdan foydalanish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

Ginsburg T. How Long Should Constitutions Endure? // Ginsburg T., Dixon R. (ed.). Comparative constitutional law. Edward Elgar Publishing, 2011. 112-123 pp.

Ginsburg T. Conceptualizing Constitutions // Zachary Elkins, Tom Ginsburg, and James Melton. The Endurance of National Constitutions. Cambridge University Press, 2009. 38-47 pp.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

Hardin R. What Constitutions Do. // Galligan D., Versteeg M. Social and Political Foundations of Constitutions. Cambridge University Press, 2009. 64-67 pp. https://books.google.co.uz/

What is a Constitution? Principle and Concepts. International IDEA Constitution-Building Primer. https://www.idea.int/sites/default/files/publications/what-is-a-constitution-primer.pdf

Sillabusga
2-ILOVA

<u>1-ORALIQ NAZORATI (NAZARIY)</u> BO‘YICHA ASSESSMENT RUBRIKASI
(BAHOLASH MEZONLARI)

Baholanadi: MKN I, MKN III
Assessment topshirig‘i: Tanlangan 2 ta xorijiy davlat konstitutsiyasining asosiy xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari bo‘yicha 2 ta slayddan iborat infografika tayyorlash.
Baholash: 20 ball

№	1-oraliq nazoratida baholanadigan moduldan kutilgan natija (MKN)	Baholash mezonlari				Qo‘yilgan ball (foizda)
		Qoniqarsiz (0 — 59%)	**Qoniqarli** (60 — 69,9%)	**Yaxshi** (70 — 89,9%)	**A’lo** (90 — 100%)	
1.	Muayyan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ajrata oladilar **(MKN I)**	- Xususiyatlar noto‘g‘ri yoki aniqlanmagan; - Infografika tartibsiz va tushunarsiz.	- Ayrim xususiyatlar aniqlangan; - Infografika mavjud, lekin yuzaki.	- Asosiy xususiyatlar aniq ajratilgan; - Infografika mantiqli va tushunarli.	- Xususiyatlar tizimli va aniq ajratilgan; - Infografika professional, vizual jihatdan kuchli.	
2.	Muayyan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy tizimlarining afzalliklari va kamchiliklarini tanqidiy tahlil eta oladilar **(MKN III)**	- Afzallik/kamchiliklar faqat sanab o‘tilgan; - “Why” (asoslash) yo‘q yoki noto‘g‘ri.	- Ayrim “Why” mavjud, lekin yuzaki; - Sabab–oqibat bog‘lanishi zaif.	- Afzallik/kamchiliklar “Why” bilan tushuntirilgan. - Sabab–oqibat bog‘lanishi aniq.	- Har bir element “Why” bilan asoslangan - Sabab–oqibat tahlili ko‘rsatib berilgan va mantiqan izchil; - Qiyosiy yondashuv aniq	

					ko‘rinadi.	
Jami o‘rtacha ball (foizda):						
Oraliq nazorat balli:						
Umumiy konstruktiv taqriz:		**1) Ishning ijobiy jihatlari:** **2) Ishni takomillashtirish kerak bo‘lgan jihatlar va tavsiyalar:**				

Sillabusga
3-ILOVA

<u>2-ORALIQ NAZORATI (AMALIY)</u> BO‘YICHA ASSESSMENT RUBRIKASI
(BAHOLASH MEZONLARI)

Baholanadi: MKN IV va MKN V

Assessment topshirig‘i: Talabalar muayyan konstitutsiyaviy institut bo‘yicha konstitutsiyaviy-huquqiy tadqiqot olib boradilar va “policy brief” tayyorlaydilar. Unda “A” davlat uchun tadqiq etilgan konstitutsiyaviy institut bo‘yicha konstitutsiyaviy normalar yaratilishi va taklif etilishi kerak.

Baholash: 20 ball

№	2-oraliq nazoratida baholanadigan moduldan kutilgan natija (MKN)	Baholash mezonlari				Qo‘yilgan ball (foizda)
		Qoniqarsiz (0 — 59%)	**Qoniqarli** (60 — 69,9%)	**Yaxshi** (70 — 89,9%)	**A’lo** (90 — 100%)	
1.	Konstitutsiyaviy-huquqiy tadqiqot olib borish va tadqiqot natijalarini rasmiylashtira oladilar **(MKN IV)**	- Tadqiqot yetarli emas yoki noto‘g‘ri; - manbalar ko‘rsatilmagan yoki ishonchsiz; - Policy brief tuzilmasiga amal qilinmagan yoki tartibsiz.	- Tadqiqot qisman amalga oshirilgan; - manbalar cheklangan; - policy brief yozilishi yuzaki va izchillik yetishmaydi.	- Yetarli va mantiqiy izchilikdagi tadqiqot olib borilgan; - tegishli manbalar ishlatilgan; - policy brief tuzilmasi aniq va mantiqan bog‘langan.	- Chuqur va tizimli tadqiqot olib borilgan; - ishonchli va xilma-xil manbalardan foydalanilgan; - policy brief professional darajada, aniq va izchil rasmiylashtirilgan	
2.	Muayyan xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalari va konstitutsiyaviy amaliyotidan kelib chiqib konstitutsiyaviy normalarni yarata oladilar **(MKN V)**	- Konstitutsiyaviy norma ishlab chiqilmagan yoki noto‘g‘ri - huquqiy shaklga mos emas	- Norma mavjud, lekin umumiy yoki noaniq; - qisman tadqiqotga asoslangan.	- Norma aniq va huquqiy shaklga mos; - tadqiqot va qiyosiy tahlilga	- Norma professional darajada ishlab chiqilgan - Aniq, tushunarli	

		- tadqiqot bilan bog‘lanmagan.		asoslangan.	va to‘liq asoslangan. - qiyosiy tahlilga chuqur tayangan.	
Jami o‘rtacha ball (foizda):						
Oraliq nazorat balli:						
Umumiy konstruktiv taqriz:		**1) Ishning ijobiy jihatlari:** **2) Ishni takomillashtirish kerak bo‘lgan jihatlar va tavsiyalar:**				

Sillabusga
4-ILOVA

YAKUNIY NAZORAT BO‘YICHA ASSESSMENT RUBRIKASI (BAHOLASH MEZONLARI)

Baholanadi: MKN I, MKN II, MKN III

Assessment topshirig‘i: Talabalarga keys va u bilan bog‘liq nazariy va amaliy savollar beriladi. Talabalar savollarga javobni 2 soatlik vaqt oralig‘ida auditoriya sharoitida hamda kuzatuv ostida komyuterda universitetning elektron ta’lim platformasida yozadilar.

Baholash: 60 ball

№	Yakuniy nazoratida baholanadigan moduldan kutilgan natija (MKN)	Baholash mezonlari				Qo‘yilgan ball (foizda)
		Qoniqarsiz (0 — 59%)	**Qoniqarli** (60 — 69,9%)	**Yaxshi** (70 — 89,9%)	**A’lo** (90 — 100%)	
1.	Muayyan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ajrata oladilar **(MKN I)**	- Konstitutsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rtasidagi farqlar ajrata olinmagan yoki noto‘g‘ri ajratilgan; - javob asosan tavsifiy yoki mavzudan chetga chiqilgan;	- Konstitutsiyalar o‘rtasidagi ayrim asosiy farqlar qisman ajrata olingan; - javob yuzaki, qiyosiy tahlil cheklangan; - misollar mavjud,	- Konstitutsiyalarning asosiy o‘ziga xos xususiyatlari aniq ajratilgan; - qiyosiy tahlil mavjud va mantiqan asoslangan;	- Konstitutsiyaviy tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlari chuqur va tizimli ajratilgan; - mukammal qiyosiy tahlil olib borilgan (bir nechta davlatlar asosida);	

		- xorijiy davlatlar misollari keltirilmagan yoki noto‘g‘ri - konstitutsiyaviy tushunchalar noto‘g‘ri qo‘llangan.	lekin umumiy yoki yetarlicha asoslanmagan - huquqiy tushunchalar qisman to‘g‘ri qo‘llanilgan.	- tegishli xorijiy davlatlar misollari to‘g‘ri keltirilgan - huquqiy terminologiya asosan to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llangan.	- misollar aniq, dolzarb va tahlilni kuchaytirgan; - huquqiy tushunchalar aniq, professional va izchil qo‘llangan.	
2.	Muayyan xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarida inson huquqlarini ta’minlash, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini tashkil etish va faoliyat yuritishiga doir muhim jihatlarni tushuntirib bera oladilar **(MKN II)**	- Inson huquqlari yoki hokimiyatlar tizimi haqida noto‘g‘ri yoki juda cheklangan tushuncha mavjid; - tushuntirish izchil emas yoki mavzudan chetga chiqilgan; - xorijiy davlatlar misollari yo‘q yoki noto‘g‘ri; - huquqiy tushunchalar noto‘g‘ri qo‘llangan.	- Inson huquqlari yoki hokimiyatlar tizimining ayrim jihatlarini qisman tushuntira olgan; - javob yuzaki, tizimlilik yetishmaydi; - misollar bor, lekin umumiy yoki yetarlicha asoslanmagan; - huquqiy tushunchalar qisman to‘g‘ri qo‘llangan.	- Inson huquqlari va hokimiyatlar tizimining asosiy jihatlari aniq tushuntirilgan; - tushuntirish mantiqan bog‘langan va yetarli darajada tizimli - tegishli xorijiy davlatlar misollari keltirilgan; - huquqiy terminologiya umuman to‘g‘ri qo‘llanadi	- Inson huquqlari kafolatlari va hokimiyatlar tizimi chuqur va tizimli tushuntirilgan; - turli davlatlar misolida mukammal tahlil va izoh berilgan; - misollar aniq, dolzarb va tahlilni boyitgan; - huquqiy tushunchalar professional va izchil qo‘llangan.	
3.	Muayyan xorijiy mamlakatlar	- Afzallik va	- Ayrim afzallik va	- Afzallik va	- Konstitutsiyaviy	

	konstitutsiyaviy tizimlarining afzalliklari va va kamchiliklarini tanqidiy tahlil eta oladilar **(MKN III)**	kamchiliklar aniqlay olinmagan yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilgan; - tanqidiy tahlil mavjud emas, faqat tavsifiy javob berilgan; - misollar yo‘q yoki noto‘g‘ri; - xulosalar asoslanmagan.	kamchiliklar qisman aniqlangan; - tanqidiy tahlil yuzaki yoki cheklangan; - misollar bor, lekin chuqur asoslanmagan; - xulosalar qisman asoslangan.	kamchiliklar aniq va mantiqan tahlil qilingan; - tanqidiy yondashuv mavjud; - tegishli xorijiy davlatlar misollari bilan asoslangan; - xulosalar mantiqan to‘g‘ri va asoslanga	tizimlar chuqur tanqidiy tahlil qilingan; - afzallik va kamchiliklar kompleks va solishtirma asosda baholangan; - bir nechta davlatlar misolida tahlil olib borilgan - Xulosalar aniq, asosli va mustaqil fikr mavjud.	
Jami o‘rtacha ball (foizda):						
Yakuniy nazorati balli:						
Umumiy konstruktiv taqriz:	**1) Ishning ijobiy jihatlari:**					

	2) Ishni takomillashtirish kerak bo‘lgan jihatlar va tavsiyalar:

Toshkent davlat yuridik universitetida
ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va
tasdiqlash to‘g‘risidagi nizomga
5-ILOVA

NAMUNAVIY SILLABUSLARDAN FOYDALANISH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

KIRISH

1. Toshkent davlat yuridik universitetida ikki xil namunaviy sillabus amal qiladi:

Dual ta’lim joriy etiladigan ta’lim dasturi bo‘yicha namunaviy sillabus;

Dual ta’lim joriy etilmaydigan ta’lim dasturlari bo‘yicha namunaviy sillabus.

2. Mazkur yo‘riqnoma yuqorida ko‘rsatilgan namunaviy sillabuslardan foydalangan holda yangi modul sillabus yaratish yoki mavjud sillabuslarni takomillashtirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. U quyidagi qismalardan iborat.

I bo‘lim – namunaviy sillabuslarga doir umumiy qoidalar;

II bo‘lim – dual ta’lim joriy etiladigan ta’lim dasturlari bo‘yicha namunaviy sillabusni qo‘llashga doir qoidalar;

III bo‘lim – dual ta’lim joriy etilmaydigan ta’lim dasturlari bo‘yicha namunaviy sillabusni qo‘llashga doir qoidalar.

I BO‘LIM. NAMUNAVIY SILLABUSLARGA DOIR UMUMIY QOIDALAR

3. Namunaviy sillabuslardan foydalangan holda yangi modul sillabus yaratish yoki mavjud sillabuslarni takomillashtirishda quyidagilarga e’tibor berish talab etiladi.

4. Modul sillabusi ikki qismdan iborat qilib shakllantiriladi. Birinchi qism **asosiy qism (module outline)**, ikkinchi qism **ilova** qismdir.

Sillabusning asosiy qismi modul rahbari tomonidan tegishli moduldan dars beradigan professor-o‘qituvchilar bilan kollaboratsiya qilish orqali tuziladi va takomillashtiriladi.

5. Sillabusning asosiy qismi tegishli ta’lim dasturi turiga qarab ushbu yo‘riqnomaning I yoki III qismida belgilangan sondagi qismlardan iborat bo‘ladi. Har bir qism aniq, lo‘nda, talabalar o‘qiganda tushunadigan tarzda yozilishi kerak.

6. Sillabus titulida TDYU rektori va Kengash qarori bilan tasdiqlash sanalari bir xil bo‘lishi lozim.

Amaldagi klassifikatorlarga muvofiq Bilim sohasi 400 000, Ta’lim sohasi 420 000 shifrni tashkil qiladi. Ta’lim yo‘nalishining aniq shifrini bilish uchun ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori hamda o‘quv rejasiga qarash lozim.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining ***“Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi buyrug‘i*** *2026-yil 28-fevralda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3781.*

7. Modul sillabusi **“konstruktiv bog‘lanish” (Constructive Alignment)** prinsipi va “natijadorlikka asoslangan ta’lim” konsepsiyasiga asoslanadi. Mazkur prinsipga binoan sillabusni tuzishda kontentga nisbatan **moduldan kutilayotgan natijalarga (MKN)** ustuvorlik beriladi.

Bunda **MKNlar ta’lim dasturidan kutilgan natija (TDKN)larga bog‘lanishi zarur.** TDKNlar ta’lim dasturi profillarida berilgan.

Sillabusdagi assessment topshirig‘i va baholash mezonlari tegishli MKNlarga, o‘quv mashg‘ulotlari assessment va MKNga bog‘lanishi zarur (MKN – assessment – o‘quv mashg‘uloti). Bu natijaga asoslangan ta’limni keltirib chiqaradi va kontentga asoslangan an’anaviy ta’limdan keskin farq qiladi.

Moduldan kutilayotgan natijalar (MKN) ko‘pi bilan 5–6 tadan oshmasligi kerak. Modulning xususiyatidan kelib chiqib natijalar bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni shakllantirishga qaratiladigan bo‘ladi. Modullarning xususiyatidan kelib chiqib ularning soni teng darajada bo‘lmasligi mumkin.

8. Moduldan kutilgan natijalar SMART tamoyili asosida shakllantirilishi kerak.

Sillabus asosiy qismidagi MKNlar ilovadagi baholash mezonlari jadvalida o‘zgarmagan holda aks etishi kerak.

MKNlar katta hajmda emas, optimal hajmda bo‘lishi kerak.

Bu MKNlarni baholash imkonini beradi. Bunda ushbu tamoyil quyidagilarni bildiradi:

S – Specific – Aniq: kutiladigan natija aniq fe’l bilan tugallanishi kerak (masalan, “kuzatmoq”, “boxabar bo‘lmoq” fe’llari bilan tugallangan natijalarni baholash qiyin yoki ilojsiz). Bunda Blum Taksonomiyasining tegishli segmentiga mos fe’llardan foydalanish mumkin.
(https://www.marshall.edu/assessment/files/2019/02/BloomsTaxonomyVerbs.pd)

M – Measurable – O‘lchanadigan: kutiladigan natija assessment orqali baholab bo‘ladigan bo‘lishi kerak, ya’ni natijalarni baholab bera oladigan baholash mezonlarini tuzib chiqishga imkon berishi zarur.

A – Attainable – Erishib bo‘ladigan: kutilayotgan natijalar mavjud tegishli resurslar holatidan kelib chiqib talabalar tomonidan real darajada erishib bo‘ladigan bo‘lishi kerak.

R – Relevant – Taalluqli: kutilayotgan natijalar baholash va o‘quv mashg‘uloti bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

T – Time-bound – Vaqt bilan bog‘langan: natijalar muayyan vaqt oralig‘igacha erishiladigan bo‘lishi kerak.

MKNlarda quyidagi fe’llar ishlatilmaydi: bilimga ega bo‘ladilar, biladilar, ma’lumotga ega bo‘ladilar, ishonadilar, his qiladilar, tasavvurga ega bo‘ladilar. Chunki bularni baholash mezonlari asosida baholash qiyin. Ular keng ma’noli yoki mavhum.

Quyidagi fe’llardan birini ishlatish tavsiya etiladi.

BLUM TAKSONOMIYASI FE’LLARI

№	Kognitiv daraja	Kognitiv darajaga mos keluvchi va ta’lim natijalarida ishlatish mumkin bo‘gan fe’llar
1.	**Eslab qolish**	Ta’rif keltirmoq, tasvirlab bermoq, chizib bermoq, aniqlamoq, nomlamoq, moslashtirmoq, iqtibos keltirmoq, yoddan aytib bermoq, aytib bermoq, yozib bermoq
2.	**Tushunish**	Namoyish qilmoq, muhokama qilmoq, misol keltirmoq, tushuntirib bermoq, sharhlab bermoq, qayta ifodalamoq, aytib bermoq
3.	**Qo‘llash**	Tadbiq qilmoq, o‘zgartirmoq, amalga oshirmoq
4.	**Tahlil qilish**	Tahlil etmoq, xususiyatlarini aniqlamoq, tasniflamoq, taqqoslamoq, qarama-qarshi qo‘ymoq, bahslashmoq, qismlarga ajratmoq, farqlamoq, ajratib ko‘rsatmoq, tekshirib ko‘rmoq, bog‘lamoq
5.	**Baholash**	Baho bermoq, bahlashmoq, tanlab olmoq, xulosa yasamoq, tanqid qilmoq, qaror qilmoq, hukm chiqarmoq, asoslamoq, kuzatmoq, bashorat qilmoq,

		ustunlik bermoq, isbotlamoq, reytingini aniqlamoq
6.	**Yaratish**	Tuzmoq, qurmoq, ijod qilmoq, yaratmoq, ishlab chiqarmoq, gipotezlashtirmoq, kashf qilmoq, yasamoq, ijro qilmoq, rejalashtirmoq

Samarali modul natijalarini yozish haqida batafsil ma’lumot uchun quyidagi ingliz tilidagi qo‘shimcha manbalar:

1. ***Measureable Verbs to Express Bloom’s Taxonomy***
https://www.marshall.edu/assessment/files/2019/02/BloomsTaxonomyVerbs.pdf
2. ***Writing learning outcomes. A practical guide for academics***
Stefan Popenici and Victoria Millar.
https://melbourne-cshe.unimelb.edu.au/__data/assets/pdf_file/0007/2296861/MCSHE-Learning-Outcomes-Guide-web-Nov2015-rev2021.pdf
3. ***A Guide to Learning Outcomes at the University of Alberta***
Prepared by: Janice Miller-Young, Ph.D., P.Eng. Academic Director, CTL Professor, Biomedical Engineering
https://www.ualberta.ca/en/centre-for-teaching-and-learning/media-library/teaching-support/images/uofa-learning-outcomes-s1s2.pdf

9. Modul sillabusini ishlab chiqishda har bir MKN qaysi TDKN(lar)ga hissa qo‘shishi, qanday turdagi TDKN (bilim, ko‘nikma yoki qadriyat)ga bog‘lanishini aniqlash maqsadida **MKNlar TDKNlar bilan xaritalanishi (curricular mapping)** zarur. Xaritalash xaritalash jadvaliga asosan amalga oshiriladi.

10. MKN+TDKN xaritalash (curricular mapping) quyidagilarga xizmat qiladi:

har bir modulning ta’lim dasturi maqsadlariga qanday hissa qo‘shayotganini talaba, professor-o‘qituvchi va tashqi baholovchilar uchun aniq va tushunarli qiladi, ta’lim dasturining yaxlit, izchil mantiqqa ega bo‘lishini ta’minlaydi;

TDKNlar MKNlar orqali ko‘proq qamrab olinayotgani, qaysilari esa umuman qamrab olinmaganligi aniqlanadi. Bu esa ta’lim dasturi natijalarini modullar kesimida muvozanatlashtirish imkonini beradi;

MKN – assessment – TDKN zanjirini kuzatib borish, ya’ni har bir TDKNga qaysi modul va qaysi assessment vositasida erishilganligini dalillash imkonini beradi; bu ta’lim dasturi darajasidagi (programme-level) natijalarni baholashda hal

qiluvchi ahamiyatga ega;

milliy va xalqaro akkreditatsiya ta’lim dasturi natijalari va modul natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashni talab qiladi;

xaritalash natijalari muntazam tahlil qilinib, ta’lim dasturi va modul sillabuslarini yangilash, mavzular va assessmentlarni qayta ko‘rib chiqish, shuningdek professor-o‘qituvchilar o‘rtasidagi kollaboratsiyani kuchaytiradi.

11. Modulning asosiy qismini shakllantirishda quyidagilarni alohida inobatga olish talab etiladi:

professor-o‘qituvchining o‘quv mashg‘ulotlarida fasilitator, mentor rolida bo‘lishi;

darslarni interaktiv o‘tish;

talabalar ishi va javobiga konstruktiv taqriz berish;

talabalar moduldan kutiladigan natijalarga erishishlari uchun formativ assessmentni qo‘llash.

12. Modul ilovasida har bir mavzudan keyin tavsiya etiladigan adabiyotlarning ro‘yxati ko‘pi bilan 3–4 ta bo‘lishi, asosiy va qo‘shimcha adabiyotga ajratilgan holda berilishi tavsiya etiladi. Adabiyotning mavzuga tegishli bo‘lgan betlari ko‘rsatib o‘tiladi. **Asosiy adabiyot universitet kutubxonasida mavjud bo‘lishi kerak.** Qo‘shimcha adabiyotlar universitet a’zo bo‘lgan xorijiy bazalarda mavjud bo‘lishi maqsadga muvofiq (Lexis, Westlaw, HeinOnline va h.k.).

Adabiyotlar qaysi til va alifboda yozilgan bo‘lsa, huddi shunday tarzda yoziladi.

Ingliz tilida o‘qitiladigan modullar bo‘yicha asosiy adabiyot ingliz tilida bo‘lishi kerak.

Xorijiy adabiyotlar Axborot-resurs markazining elektron katalogi orqali topilishi mumkin. Quyidagi havolaga murojaat qiling: https://library.tsul.uz/

13. Modul rahbarlari quyidagi vazifalarni bajaradilar:

modul sillabuslarida moduldan kutilayotgan natijalarni (MKN) tegishli ta’lim dasturidan kutilgan natijalar bilan bog‘liq holda hamda mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda shakllantirish;

moduldan kutilayotgan natijalarni (MKN) ta’lim dasturidan kutilgan natijalar (TDKN) bilan xaritalash (curricular mapping);

moduldan kutilayotgan natijalarni baholab bo‘ladigan qilib shakllantirish;

moduldan dars berayotgan professor-o‘qituvchilarni o‘quv mashg‘ulotlarini moduldan kutilayotgan natijalarni keltirib chiqaradigan tarzda olib borishga da’vat etish hamda bu borada ular bilan kollaboratsiyaga asoslangan muhokamalarni tashkil etish va o‘tkazish, ular bilan doimiy muloqot qilish;

oraliq va yakuniy nazorat uchun baholash mezonlarini moduldan kutilayotgan natijalarni aniq o‘lchab beradigan tarzda ishlab chiqish va sillabusda

belgilangan muddatgacha talabalarga tanishtirilishini ta’minlash.

14. Modul mavzularini interaktiv o‘qitish bo‘yicha professor-o‘qituvchilarning kollaboratsiyasini tashkil etish.

15. Modulning qaysi mavzusi kelganda moduldan kutilayotgan natijalarda nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va qadriyatlarni shakllantirishga e'tibor berish kerakligi yuzasidan moduldan dars beradigan professor-o'qituvchilarning kollaboratsiyasini tashkil etish, muhokama etish.

16. Kafedra mudirlari modul sillabuslarining modul rahbarlari tomonidan sifatli tuzilishini nazorat qiladilar. Ular modul sillabuslarining sifatli tuzilishi uchun modul rahbarlari bilan birgalikda javobgardirlar.

II BO‘LIM. DUAL TA’LIM JORIY ETILADIGAN TA’LIM DASTURLARI BO‘YICHA SILLABUS NAMUNASINI QO‘LLASHGA DOIR MAXSUS QOIDALAR

17. Ushbu qism dual ta’lim joriy etiladigan ta’lim dasturi bo‘yicha namunaviy sillabusni qo‘llashga doir amal qilinishi kerak bo‘lgan qo‘shimcha ko‘rsatmalardan iborat.

18. Sillabusning asosiy qismi 10 ta qismdan iborat bo‘ladi:

I. Modul tavsifi;

II. Modulning asosiy talablari;

III. Modul tarkibi;

IV. Modulning maqsadi;

V. Moduldan kutilgan natijalar (MKN);

VI. Assessment va baholash;

VII. O‘quv mashg‘ulotlarini olib borish;

VIII. Modulning amaliyot qismi;

IX. Mustaqil ta’lim;

X. Modul mavzulari.

19. “III. Modul tarkibi” qismidagi jadvalda modul soatlari **nazariy qism** (ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari soatlari) hamda **amaliy qism** (amaliyot soatlari) bo‘yicha alohida ajratilgan holda ko‘rsatiladi. Jami kredit/soatlar nazariy va amaliy qism soatlari, baholash hamda mustaqil ta’lim soatlari yig‘indisidan tashkil topadi.

20. “VI. Assessment va baholash” qismida oraliq nazoratlar nazariy va amaliy yo‘nalishlarga ajratilgan holda shakllantiriladi (masalan, 1-oraliq nazorat – nazariy, 2-oraliq nazorat – amaliy). Amaliy yo‘nalishdagi oraliq nazorat talabaning amaliyot davomida shakllangan bilim va ko‘nikmalarini baholashga qaratiladi.

21. “VII. O‘quv mashg‘ulotlarini olib borish” qismida modul mashg‘ulotlari **ma’ruza, seminar, amaliyot va mustaqil ta’lim** shakllarida tashkil etilishi

ko‘rsatiladi. Ma’ruza mashg‘ulotlarida nazariy masalalarni amaliy misollar asosida o‘qitish (problem-based learning), seminar mashg‘ulotlarida Suqrot metodi, keys-stadi va boshqa metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

22. Sillabusga **“VIII. Modulning amaliyot qismi”** nomli alohida qism kiritiladi. Unda quyidagilar aks ettiriladi:

modulning mustaqil ta’limdan tashqari soatlarining kamida 50 foizi amaliyotga ajratilishi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2025 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-232-son Farmoniga binoan makur talab bakalavr Yurisprudenisya ta’lim dasturiga nisbatan tatbiq etiladi);

amaliyot tashkilotidagi mashg‘ulotlar dars jadvalida belgilangan kunlarda seminar o‘qituvchisi tomonidan amaliyot tashkiloti xodimi – mentor bilan hamkorlikda olib borilishi;

amaliyot materiallarining elektron shakllari modul papkasining amaliyot qismida joylashtirilishi;

talabalarning amaliyot davomida reflektiv jurnal yuritishlari, unda tegishli amaliy ko‘nikmalarning shakllanish va rivojlanish jarayonini kuzatib borishlari zarurligi.

23. “X. Modul mavzulari” jadvalida har bir mavzu bo‘yicha nazariy qism (ma’ruza, seminar) soatlaridan tashqari **amaliy qism soati** alohida ustunda ko‘rsatiladi.

24. Modul rahbari amaliyot tashkiloti(lari) bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mentorlar bilan muloqotni tashkil etish va amaliyot sifatli o‘tishini nazorat qilish bo‘yicha ham javobgar bo‘ladi.

III BO‘LIM. DUAL TA’LIM JORIY ETILMAYDIGAN TA’LIM DASTURLARI BO‘YICHA SILLABUS NAMUNASINI QO‘LLASHGA DOIR MAXSUS QOIDALAR

25. Ushbu qism dual ta’lim joriy etilmaydigan ta’lim dasturlari bo‘yicha namunaviy sillabusni qo‘llashga doir bo‘lib, yo‘riqnomaning I bo‘limida ko‘rsatilgan umumiy qoidalarga qo‘shimcha ravishda quyidagi qoidalarga rioya etilishi shart.

26. Sillabusning asosiy qismi 9 ta qismdan iborat bo‘ladi:

I. Modul tavsifi;

II. Modulning asosiy talablari;

III. Modul tarkibi;

IV. Modulning maqsadi;

V. Moduldan kutilgan natijalar (MKN);

VI. Assessment va baholash;

VII. O‘quv mashg‘ulotlarini olib borish;

VIII. Mustaqil ta’lim;

IX. Modul mavzulari.

27. “III. Modul tarkibi” qismidagi jadvalda modul soatlari ma’ruza, seminar, baholash, mustaqil ta’lim hamda jami auditoriya soatlari sifatida ko‘rsatiladi. Amaliy qism (amaliyot) soatlari ajratilmaydi.

28. “VII. O‘quv mashg‘ulotlarini olib borish” qismida modul mashg‘ulotlari faqat **ma’ruza va seminar** shaklida tashkil etiladi. Ma’ruza mashg‘ulotlarida interaktiv ma’ruza va Suqrot metodi asosidagi interaktiv savol-javob, seminar mashg‘ulotlarida keys-stadi, interaktiv taqdimotlar, kichik guruhlardagi muhokama, loyiha ishi va shu kabi boshqa metodlardan foydalaniladi.

29. Ushbu sillabus turida dual ta’limdagi kabi amaliyot qismi ko‘zda tutilmaydi, shu sababli “Modulning amaliyot qismi” nomli qism sillabus tarkibiga kiritilmaydi.

30. “IX. Modul mavzulari” jadvalida har bir mavzu bo‘yicha faqat auditoriya (ma’ruza va seminar) hamda mustaqil ta’lim soatlari ko‘rsatiladi, dual ta’limdagidek amaliy qism uchun alohida ustun berilmaydi.